

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ROMAN – GERMAN FILOLOGIYASI
ROMAN-GERMAN TILLARI KAFEDRASI

Bitiruvchisi Ahatova Lobarning
“Nemis tilida fe'l zamonlarining grammatik jihatdan tasniflanishi”
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

QARSHI 2014

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB NEMIS TILIDA FE'L ZAMONLARINING GRAMMATIK JIHATDAN TASNIFLANISHI

1.1 Nemis tili fe'l so'z turkumida zamon kategoriyasi

1.2 Nemis tilida fe'l zamonlarining sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi

II BOB O'ZBEK TILIDA FE'LNING ZAMON KATEGORIYALARI

2.1 O'zbek tilida fe'lning zamon kategoriyalari

2.2 O'zbek tilida fe'l zamonlarining sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi

XULOSA

ILOVA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimizning jahon miqyosida tutgan o'rni salohiyatini oshirishning eng muhim jihatlari nazarda tutilgan "Mamlakatimizning salohiyati, go'zalligi va iqtisodiyotimizning rag'batlantirilishini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy yetakchi sohalarini modernizatsiya qilish texnik va texnologik yangilash va infratuzilma komunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat" ekanligini alohida uqtirib o'tadilar.

Ana shunday buyuk vazifalar va ularni amalga oshirish uchun ajratilayotgan mablag'lar ertangi kunimiz uchun mehnat qilish fidoilik ko'rsatish bolalarimiz uchun mehnat qilish - bu barchamizning muqaddas burchimizdir degan fikrlari butun xalqimizning azaliy orzu umidlari va fikrini ochiq bir ifodalashidir.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni zamonaviy ilg'or pedagogik texnologik texnologiyalardan foydalanish ustivor yo'nalishlarimizdan biridir. Aynan shu xususida Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimizdir" ma'ruzasidan: "Bugun hayotning o'zi oldimizga fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat'iy qilib qo'yimoqda. Ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio televideniya faoliyatini jonlantirish ularning Internet global tarmog'iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, olib borilayotgan islohotlar siyosati ochiqqligining va oshkoraligini ta'minlashga kuchli fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishi madad berishi darkor.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi»gi qonuni, Kadrlar tayyorlashning milliy dasturining asosiy vazifalari mamlakatimizda xorijiy tillarni mukammal biladigan yuqori malakali, sifatli kadrlar tayyorlashga qaratildi.

Ayni kunlarda 2011 – 2016 yillarda Oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilayotganining o'zi ham oliy ta'lim sohasida qilinayotgan yangilanishlarning yana bir isbotidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son qarorining ta'sis etilishi ham bejiz emas. "Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad – oliy ta'lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o'quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdan iborat"¹.

Chet tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, shuning uchun ham olmon tilini o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi jamiyat, davlat manfaatlari va talablariga mos kelmog'i hamda javob bermog'i lozim. Mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xalqaro aloqalar, turizm, savdo-sotiq va mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga olmon tilini puxta o'rgatish va masalalarni erkin muhokama qila olish, umuman og'zaki va yozma shaklda muloqot qila olishni o'rgatish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalar yaratilayotgan o'quv dasturi va darsliklarda o'z ifodasini topishi zarur. Mamlakatimiz kelajagi uchun 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Kadrlar

¹ Karimov I.A. Barcha va reja dasturlarimiz Vatanimiz tarqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi \ Ma'rifat, 2011 yil 22 – yanvar.

tayyorlash milliy dasturi”, “Ta’lim to’g’risida”gi qonun ko’rsatmalari juda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim to’g’risidagi ijtimoiy buyurtma

Ta’lim to’g’risidagi ijtimoiy buyurtma topshiriq bo’lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 27 yanvar kuni Toshkentda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va senatining qo’shma majlisida so’zlagan nutqida mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimiz ekanligi to’g’risida batafsil to’xtalib o’tdilar. Aynan shu majlisda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to’g’risida qarori qabul qilindi. ”Barkamol avlod yili” Davlat dasturi to’g’risidagi qarorida Prezidentimiz I.A.Karimov: ”Zamonaviy axborot va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o’zlashtirish”¹ni ta’kidlab o’tdilar.

Davlatimiz, xususan Prezidentimizning ta’lim sohasiga, chet tillarni o’qitish va o’rganishga nisbatan alohida e’tibor qaratishi tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida tilshunos olimlarimiz oldiga yanada mas’uliyatli vazifalarni qo’ydi. Bunday vazifalarning dolzarbligi haqida gapirib, yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlagan edi: “... zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo’nalishi jahon miqyosida chiqqan tillarni, ayniqsa ilg’or texnikaviy tafakkur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis va ispan tillarini va boshqa tillarni o’rganishni butun choralar bilan rag’batlantirishimiz lozim”². Hali mamlakatimiz mustaqillikka erishmasdanoq davlatimiz rahbari I.A.Karimov yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularda yuqori malakali ixtisos egalari bo’lib yetishishga sharoit tug’dirmay turib, respublikaning xalq xo’jaligini, sanoat ishlab chiqarish

¹ I.A.Karimovning 2010 yil 27 yanvar kuni Toshkentda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi nutqi “O’zbekiston Ovozi” 2010 yil 28 yanvar, Payshanba 12 (30.132)

² Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, “O’zbekiston”, 2011 y. –B.90.

sohalarini tubdan o'zgartirib bo'lmashligini ta'kidlab o'tgan edi ³. Insoniyat hayotida yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar, tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xorijiy tillarni nazariy jihatdan o'rganish barcha talabalarning bilim saviyasini oshiradi. Professor A.A. Abduazizov ta'kidlaganidek, "... til dalillarini ongli ravishda o'zlashtirish, nazariy bilimlar ustida ongli ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ham o'z ona tilimizni, ham xorijiy tillarni amaliy o'rganishga yordam beradi"⁴.

Dunyoda rivojlanmaydigan narsaning o'zi yo'q, chet tillar ham bundan mustasno emas. Bir tomondan til ijtimoiy hodisa va tizim sifatida kundan-kunga o'zgarib takomillashib borsa, ikkinchi tomondan bu hodisani o'rganuvchi fan ham katta odimlar bilan ilgarilab ketmoqda. O'zligimizni anglash, ichki hissiyotlarimizni tushunish, ularni ifoda etish ham tilimizga, uning bizga bergan imkoniyatlariga bog'liq. Jamiyatni, uning rivojini, gullab - yashnashini, taraqqiyotini ta'minlovchi vosita bu - tildir.

Jumladan nemis tili ham hozirda yurtimizda o'rganilishi kerak bo'lgan tillar sirasiga kirib ulgurgan. Buning isbotini yurtimizda bu borada amalga oshirilgan ishlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yurtimizning deyarli barcha viloyatlaridagi oliygohlarida chet tillar, jumladan nemis tili fakulteti yoki bo'limining mavjudligi va mamlakatimizda Germaniyaning DAAD hamda Gyote institutining faoliyat olib borishi fikrimizning yaqqol misolidir. Tabiiyki bu kabi imkoniyatlarning yaratilishi tilning turli jabhalarida yangidan-yangi izlanishlarni talab qiladi. Jumladan biz ham bitiruv malakaviy ishimizda nemis tilida fe'l zamonlarining qo'llanishi va uning grammatik jihatdan tasniflanishini o'zbek tili bilan qiyoslab tadqiq qildik.

³ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent, "O'zbekiston", 2011 y. –B.137.

⁴ Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. –T., "O'zbekiston", 1992, -B. 5-6.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikkita bob, har bir bobda ikkitadan paragraf, xulosa, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismida ishimizning maqsadi, vazifasi, dolzarbligi, tadqiqod materiali, ishning o'rganilganlik darajasi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati qayd etilgan bo'lsa, asosiy qismda o'zbek va nemis tillarida fe'l zamonlarining grammatik jihatdan tasniflanishi haqidagi asosiy tushunchalar misollar bilan yoritib berildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobi nemis tilida fe'l zamonlarining morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi yoritib berilgan bo'lsa, bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi bobida esa o'zbek tilida fe'l zamonlarining morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishimizda nemis tilida fe'lning grammatik kategoriyalarini tadqiq qilib asosan, fe'l so'z turkumining zamon kategoriyasini sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishini o'rganib chiqdik.

Ishimizning xulosa qismida erishilgan natijalar va olingan bilim-ko'nikmalarning sarhisobi berilib, xulosa qilingan bo'lsa, ilovada misollar jamlanmasi taqdim etildi. Bitiruv malakaviy ishimizning so'ngida esa ushbu tadqiqotimizni imkon qadar yoritishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kiritib ketildi.

Mavzuning dolzarbligi: Nemis va o'zbek tillarida fe'l zamonlarining tasniflanishi va ularning qiyosiy tahlilini yoritib berish ishimizning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuning maqsad va vazifalari: Nemis tilida fe'lning zamon kategoriyasini semantik jihatdan tahlil qilish va ularni o'zbek tilida berilishini o'rganish bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Nemis tilida yaratilgan asarlarda fe'l zamonlarining qo'llanilishini o'zbek tili tarjimasida berilishini tadqiq qilish bitiruv malakaviy ishimizning **vazifasiga** kiradi.

Tadqiqot materiali: Tadqiqot materiali sifatida nemis adibi Bruno Apitsning “Nackt unter der Wölfen” hamda bu asarning Yanglish Egamova tomonidan qilingan “Qashqirlar changalida” tarjimasi va Emine Sevgi O’zdamarning “Mein Istanbul” va bu asarning Yanglish Egamova tomonidan qilingan “Mening Istanbulim” tarjimasi, hamda Marie Luise ning “Schriftsteller” va bu asarning Hafiza Qo’chqorova tomonidan qilingan “Yozuvchi” tarjimalari tanlab olindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Mazkur bitiruv malakaviy ishida erishilgan natija va xulosalarga tayanib, yosh tarjimonlar nemis tilida yaratilgan asarlarining o’zbek tiliga qilayotgan tarjimalarida hamda ilmiy maqolalar yozishda va BMI yozishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining o’rganilganlik darajasi: Nemis tilida fe’l zamonlarining nemis tilshunoslaridan Sigbert Latsel “Die Deutschen Tempora”, Steube, Anita “Temporale Bedeutung im Deutschen” Wunderlich, Dieter “Tempus und Zeitreferenz im Deutschen” nomli ilmiy ishlarida hamda bundan tashqari ko’plab tilshunoslar fe’l zamonlarining tasniflanishi haqida ishlar olib borishgan. Shuningdek ushbu bitiruv malakaviy ishida **tasviriy-qiyosiy** metoddan foydalanildi.

BIRINCHI BOB

Nemis tilida fe'l zamonlarining grammatik jihatdan tasniflanishi.

1.1. Nemis tili fe'l so'z turkumida zamon kategoriyasi.

Nemis va o'zbek tillaridagi vaqt, ya'ni zamon kategoriyasi klassifikatsiya nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Bu kategoriya predikativ kategoriyalar sirasiga kiradi. U ifodalanayotgan mazmun va nutq aktining aniq payt orasidagi vaqt bilan bog'liq munosabatini aks ettiradi.

Tub fe'llarning zamon formalari so'zlangan mazmun nutq aktidagi momentga taalluqli yoki o'tgan yoki kelasi zamonda ro'y berishidan darak beradi.

O'zbek tili fe'l sistemasida 12 zamon shakli mavjud (8 ta sintetik va 4 analitik formalar), nemis tilida ular esa - 6 ta zamon formasi (ulardan 2 tasi sintetik va 4 ta analitik).

Bular:

Hozirgi zamon formalari

O'zbek tilida:

1. Hozirgi kelasi zamon fe'li
2. Hozirgi zamon davom fe'li (**-yap+man**
-yotir+man -mokda+man)

Nemis tilida

1. das Prasens (a-+di shakli)

Bu shakllarning har biri o'z bo'yoqdorligiga ega.

Masalan: **ishlamoq (arbeiten)** fe'li birinchi shaxs birlikda: ishlayapman, ishlab turibman, ishlayotibman, ishlab yuribman, ishlamokdaman

Nemis tilida Präsens Indikativ Aktiv fe'l o'zagiga shaxs-son qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

O'tgan zamon formalari

1. O'tgan zamon nisbat fe'li

1. Das Präterit (-di formasi)

2. Tarixiy o'tgan zamon fe'li
3. Uzoq o'tgan zamon fe'li (**-gan edi** formasi)
3. Das Plusquamperfekt (**-gan** formasi)

4. O'tgan zamon hikoya fe'li (-ib edi formasi). Tugallanmagan o'tgan zamon fe'li (-ar **edi** formasi)

6. O'tgan zamon davom fe'li **I (-yotgan edi** formasi)

7. O'tgan zamon davom fe'li **II (-moqda edi** formasi)

To'g'ri fe'llar (to'g'ri tuslanish) nemis tilida Präteritum Indikativ Aktiv da o'zak va shaxs qo'shimchasi orasida -te qo'shimcha oladi.

Noto'g'ri fe'llar (noto'g'ri tuslanish) Präteritum Indikativ Aktiv da o'zak unlisini o'zgartiradi va quyidagi qo'shimchalarni oladi: -0, -st, -0 (Birlik) und -en, -t, -en (Ko'plik).

Aralash fe'llar (Aralash tuslanish) Präteritum da noto'g'ri fe'llardagi kabi o'zak unlisini o'zgartiradi va to'g'ri fe'llar olgan qo'shimchalarni oladi.

Nemis tilida **Präsens Indikativ Aktiv va Präterit Indikativ Aktiv** sintetik formalar hisoblanadi, chunki ular faqatgina fe'l o'zagiga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi.

Qolgan barcha zamonlar analitik zamon formalaridir. Ular yordamchi fe'l va asosiy fe'l ishtirokida yasaladi.

Perfekt Indikativ Aktiv formasi haben va sein yordamchi fe'llarini Präsens da shaxs-sonda moslash va asosiy fe'lning sifat-dosh II formasini qo'shish bilan yasaladi:

Plusquamperfekt Indikativ Aktiv formasi haben va sein yordamchi fe'llarini Präterit da shaxs-sonda moslash va asosiy fe'lning sifat-dosh II formasini qo'shish bilan yasaladi.

Futur I Indikativ Aktiv formasi werden yordamchi fe'lini Präsens da shaxs-sonda moslash va asosiy fe'lning infinitiv formasini qo'shish bilan yasaladi:

ich	werde
du	wirst
er	wird
wir	werden
ihr	werdet
sie	werden

Futur II Indikativ Aktiv formasi werden yordamchi fe'lini Präsensda shaxs-sonda moslashishi va asosiy fe'ning infinitiv II formasini qo'shish bilan yasaladi:

ich	werde	
du	wirst	
er	wird	gekommen sein, gearbeitet haben
wir	werden	
ihr	werdet	
sie	werden	

Solishtirish shuni ko'rsatyapti-ki, zamon formalarining yasalish shakllari ikkala tilda tubdan farq qiladi. O'zbek tilida nemis tiliga nisbatan sintetik fe'l shakllari ko'proq qo'llaniladi. Aksar nemis tilidagi analitik fe'l shakllari o'rniga o'zbek tilida sintetik fe'l formalari qo'llanadi:

Auf Wunsch meiner Frau, die es offenbar für nötig halt, mich zu zerstreuen, haben wir einige heute eingeladen .

Vor etwa 14 Tagen habe ich den Entschluß gefaßt, etwas zu lassen und etwas anderes zu tun .

Rafiqamning xohishiga ko'ra meni biroz chalg'itish maqsadida bir nechta mehmonlarni uyga taklif qildik .

Qariyb 14 kun oldin hayotimni biroz o'zgartirishga qaror qildim .

Ish-harakatning bajarilishi, albatta zamon, vaqt doirasida bo'ladi. Shunga ko'ra ish-harakat zamon ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi va fe'llar zamon ma'nosini ifodalovchi shakllarga ham ega bo'ladi. Masalan. Er geht in die Schule - U maktabga boryapti. - Hozirgi zamon ma'nosida qo'llanyapti. Sie arbeiteten im Garten-Ular bog'da ishladilar. -O'tgan zamon ma'nosida;

Harakat doim bajaruvchi shaxs bilan bog'liq bo'ladi. Ish harakatning voqelikka bo'lgan munosabati esa bevosita so'zlovchi orqali aniqlanadi. So'zlovchi bor joyda tinglovchi ham mavjud bo'ladi. Bundan tashqari so'zlovchi va tinglovchidan tashqari o'zga shaxslar ham bo'lishi mumkin. Harakat sub'ekti esa ana shu shaxslardan biri bo'lishi mumkin. Ish harakatning mana shu shaxslarga bo'lgan munosabati shaxs- son kategoriyasi deb nomlanadi.

Bundan tashqari yordamchi fe'llar harakat ma'nosini ifodalamaydi. "**Werden, haben va sein**" fe'llari yordamchi fe'llarning asosini tashkil qiladi. "**Haben** "va "**sein**" fe'llari hozirgi zamonda mustaqil qo'llanishi mumkin. "Haben" fe'li gapda fe'l kesim bo'lib keladi va o'zidan keyin to'ldiruvchini hammavaqt noaniq artikl bilan tushum kelishigida turishini talab etadi. Bu fe'l o'zbek tiliga "Bor, ega bo'lmoq" so'zlariga to'g'ri keladi. Masalan: **Ich habe** einen Kugelschreiber - Mening ruchkam bor.

"Sein" fe'li esa gapda doim ot kesimning bir qismi bo'lib keladi. O'zbek tiliga mustaqil so'z sifatida tarjima qilinmaydi. U o'zbek tilidagi ot kesimning qo'shimchalari bo'lmish "**-man, -san, -miz, -siz, -dir**" qo'shimchalariga to'g'ri keladi. Ushbu yordamchi fe'llar nemis tili fe'l zamonlarining aktiv va passiv shakllarini yasashda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari fe'l so'z turkumida kuchli va kuchsiz yasalishi, ajraladigan va ajralmaydigan old qo'shimchali fe'llar, "**sich**" o'zlik fe'llari, fe'llarning buyruq

shakllari va ularning yasalishi, fe'ning asosiy shakllari, fe'ning noaniq shakllari kabi

bir- biri bilan uzviy bog'langan bogliqliklari mavjud. Eng asosiy jihati shundan iboratki, hozirgi nemis tili fe'ning uch xil tasniflanishi, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tadqiq etib o'rganilishi ushbu so'z turkumining naqadar murakkab va serqirraligidan dalolat beradi. Nemis tili fe'l so'z turkumining morfologik, sintaktik va semantik jihatdan tasniflab o'rganish ushbu so'z turkumining keng qamrovda tadqiq etishda asosiy ahamiyat kasb etadi. Bular orasida fe'ning morfologik jihatdan tadqiq etib o'rganilishi juda muhimdir. Morfologik jihatdan fe'llar quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi: 1. Starken Verben-kuchli fe'llar; 2. Die schwachen Verben-kuchsiz fe'llar; 3. Die Verben präteritopräsentia 4. Die unregelmäßigen Verben-nomuntazam fe'llar, ya'ni doimiy emas. Endi ushbu bo'limlarning har birini alohida qarab chiqaylik.

Die Starken Verben-kuchli fe'llar. Kuchli fe'llarning yasalishi asosan fe'l o'zagidagi unlilar o'zgarishi bilan, ya'ni shaxs-sonlarda, zamonlarda o'zgarishi bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Kuchli fe'llardan hozirgi zamon shaklini yasash misolida fikrimizni isbotlab o'tsak. Kuchli fe'llar hozirgi zamonda tuslanganda o'zagidagi unli tovushlar o'zgaradi. Bundan tashqari o'zagidagi "a, o" yoki "au" diftongi bo'lgan kuchli fe'llar II va III shaxs birligida umlaut qabul qiladi. Masalan bunday fe'llarga " **lassen-qoldirmoq, fahren-bormoq**" va boshqa fe'llarni keltirish mumkin. O'zagida "-e" unli tovushi bo'lgan kuchli fe'llar **II va III** shaxs birligida o'zagidagi "-e" unlisi qisqa yoki cho'ziq, "i, ie" ga o'zgaradi. Bunday fe'llarga " **treffen-uchratmoq, werfen-tashlamoq, geben-bermoq, sprechen-gapirmoq, nehmen-olmoq**" va boshqa fe'llarni misol qilib keltirish mumkin.

Fe'l o'zagidagi "-t, -d" bilan tugagan kuchli fe'llar **II va III** shaxs birligida "— e" qo'shimchasini olmaydi. Ushbu guruh **fe'llariga** " **laden-taklif qilmoq, raten-**

maslahat bermoq, treten-kirmoq" va boshqa fe'llar kiradi. Bundan tashqari **o'zagi** "-s,-B ,-tz,-z" kabi undoshlar bilan tugagan fe'llar **II** shaxs birligida "—s" qo'shimchasini qabul qilmaydi. Masalan, bunday fe'llarga **"essen-yemoq, sitzen-**

o'tirmoq, heißen-atamoq" kabi ko'pgina fe'llar guruhini kiritishimiz mumkin.

Kuchli fe'llarni fe'lining uch asosiy qismi bo'lmish: **Infinitiv, Imperfekt, Partizip II** da o'zgarishi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Kuchli fe'llar **Imperfekt** da hech qanday qo'shimcha olmaydi.

2. Schwachen Verben-Kuchsiz fe'llar-ushbu doiradagi fe'llar asosan zamonlarda shaxs-sonlarda ifodalanganda ularni ajratib olishimiz mumkin. Masalan, kuchsiz fe'llardan hozirgi zamon shaklini yasalishini ko'rib chiqsak. Ushbu fe'llarning hozirgi zamon shakli ham fe'l o'zagiga quyidagi shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi:

Singular-I-e, II-st, III-t; Plural-I-en, II-t, III-en

Yana o'zagi: d, tm, gn, ffh, chn kabi undosh tovushlar bilan tugagan kuchsiz fe'llar **II** va **III** shaxs birligida ham, hamda **II** shaxs ko'pligida "-e" qo'shimchasini olib keladi. Bunday toifadagi fe'llarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: **"öffnen-ochmoq, begegnen-uchratmoq, antworten-javob bermoq, warten-kutmoq, leiten-boshqarmoq, ordnen-tartibga keltirmoq"**.

Kuchsiz fe'ldan o'tgan zamon shaklini yasashda asosan fe'l o'zagiga "-(e)te" qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilamiz. Kuchsiz fe'llarning bundan tashqari o'ziga xos maxsus guruhi ham mavjud. Ushbu guruhga: **"kennen-bilmoq, nennen-atamoq, rennen-musobaqalashmoq"** kabi ko'pgina fe'llarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu fe'l kuchli fe'lga o'xshab o'zagidagi "-e" unlisini, Imperfekt va **Partizip II** da "-a"unlisiga almashtiradi va **Imperfekt** da **-te**, **Partizip II** da **-t**, qabul qiladi: **kennen-kannte-gekannt; denken-dachte-gedacht**.

Bundan tashqari modal fe'llar ham o'zining **Imperfekt va Partizip II** shaklini xuddi kuchsiz fe'llar kabi yasaydi, lekin umlaut olmaydi.

Infinitiv	Imperfekt	Partizip II
-----------	-----------	-------------

können, müssen	konnte, musste	gekonnt, gemusst
wollen, mögen	wollte, mochte	gewollt, gemocht
sollen, dürfen	sollte, durfte	gesollt, gedurft

3. Die Verben präteritopräsentia. Nemis tilining ushbu doirasidagi fe'llarga 6 ta modal fe'llarni kiritishimiz mumkin. Ushbu fe'llarning bunday atalishiga sabab fe'lning eski qadimgi o'tgan zamon shakli tilning rivojlanishida hozirgi vaqtda bo'layotgan ish-harakatni olib kelgan va hozirgi zamon shaklini yasab kelgan.

Shuning uchun ushbu fe'llar I va **III** shaxs birlikda hozirgi zamonda hech qanday shaxs-son qo'shimchasini olmagan.

Modallikning ifodalanishi har bir tilda har xil bo'lib, u yoki bu tilning spetsifikasi, ichki taraqqiyot qonunlari bilan chambarchas bog'langandir . **4. Die unregelmäßigen Verben-Doimiy bo'lmagan fe'llar.** Ushbu turdagi fe'llarga quyidagilar kiradi:"sein, **haben, werden**" fe'llaridir. Bundan tashqari doimiy bo'lmagan fe'llarga: modal fe'l va kennen, nennen, brennen, rennen kabi fe'llarni kiritishimiz mumkin.

Har bir fe'lning yasalish shakllari turlichadir. " **Sein** " fe'li supletiv fe'l hisoblanib, fe'lning 3 asosiy shaklida turli o'zgarishda bo'ladi."**Haben** va **werden**" ushbu fe'llar o'zlarining undosh tovushlarini yo'qotadi. " **Stehen va gehen**" fe'llari hozirgi zamon , o'tgan zamon va fe'lning noaniq shakli bo'lmish **Partizip II** da ham o'zaro qarama-qarshilikni uchratishimiz mumkin.

1.2. Nemis tilida fe'l zamonlarining sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi.

Bizga ma'lumki, chet tillarni o'rganish jarayonida grammatikaning ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa yevropa tillari ichida nemis tili grammatikasi juda murakkab hisoblanganligi uchun uni o'zlashtirishda katta ma'suliyat talab qilinadi. Jumladan fe'l - so'z turkumlari orasidagi eng muhimi sanaladi. Fe'llar doimo harakat ma'nosini bildirib, gapda doim muhim vazifalarni bajarib keladi. Bundan tashqari grammatikada harakat tushunchasi keng bo'lib, ko'pgina hodisalarni o'z ichiga qamrab oladi. Bulardan har birining o'ziga xos xususiy tomonlari bo'lishi bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan tomonlari mavjud, ya'ni, bularning barchasi zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisalar hisoblanadi. Ularda ish- harakat bajarilishi albatta zamon, vaqt doirasida bo'ladi.. Shunga ko'ra ish -harakat zamon ma'nosi bilan uning shakllariga ega bo'lib keladi. Bu borada fe'l so'z turkumining zamon kategoriyasini semantik jihatdan tasniflab o'rganish juda katta o'rin tutadi.. Fe'lning vaqt yo'nalishidagi grammatik kategoriyasi asosan vaqt hodisasining vaqtga bo'lgan munosabatini ifodalab keladi. Shunga ko'ra bu jarayon murakkab hodisa bo'lganligi uchun ularni to'g'ri qo'llash nemis tilini o'rganuvchilar uchun va tarjimalarda, ilmiy, badiiy va ommabop asarlarni tarjima qilib ommaga yetkazishda ko'pgina muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Shu sababli zamon tizimining semantik tomonlari nemis tilidagi asarlarni o'zbek tiliga, o'zbek tilidagi asarlarni nemis tiliga tarjima qilinayotganda ushbu qirralarga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim. Aks xolda tarjimani asl mohiyatini ochib berishda ko'pgina muammolar uchrashi mumkin. Mana shu asoslarga fe'lning zamon tizimi murakkab tizimlardan biri ekanligini anglab olish qiyin emas. Shuning uchun zamonning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish, ularni o'zbek tiliga to'g'ri shakllarda yetkazib berish juda ham dolzarb hisoblanadi.

Nemis va o'zbek tillaridagi vaqt, ya'ni zamon kategoriyasi klassifikatsiya nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Bu kategoriya predikativ kategoriyalar sirasiga kiradi. U ifodalanayotgan mazmun va nutq aktining aniq payt orasidagi vaqt bilan bog'liq munosabatini aks ettiradi.

Tub fe'llarning zamon formalari so'zlangan mazmun nutq aktidagi momentga taalluqli yoki o'tgan yoki kelasi zamonda ro'y berishidan darak beradi.

O'zbek tili fe'l zamonida 12 zamon shakli mavjud (8 ta sintetik va 4 analitik formalar), nemis tilida ular esa - 6 ta zamon formasi (ulardan 2 tasi sintetik va 4 ta analitik).

Nemis tilida fe'lning hozirgi zamon shaklini ifodalash uchun faqat Präsens zamoni asos bo'lsa, o'zbek tilida bu zamonning asosan ikki xil ko'rinishi, qolaversa, ularning boshqa qo'shimcha shakllari ham mavjud. O'zbek tilida hozirgi zamonning asosiy ko'rinishlari quyidagilar: 1.Hozirgi kelasi zamon fe'li 2.Hozirgi zamon davom fe'li

Nemis tilida Präsens ning o'zbek tilidagi hozirgi zamondan asosiy farqi shunda-ki, u ko'p ma'nolilik (polisemantik) xususiyatga ega va ko'p paradigmantik (xarakterli) va sintagmatik (yaxlit) ma'nolarni bildiradi.Ya'ni, asosiy, qo'shimcha va ko'chma ma'nolarda ishlatiladi. Bu ma'no komponentlari ma'no sathining distinktiv belgilari hisoblanadi va zamon bilan aniq payt o'rtasidagi muvozanatni hosil qiladi.

Quyida Präsens zamonining polisemantik xususiyatlarini aniq payt bilan solishtirgan holda klassifikatsion tarzda izohlaymiz. Biz fikrimizni nemis tili fe'l zamonining Präsens shakli orqali misollar asosida asoslab o'tsak.Misol tariqasida Bruno Apitsning "Nackt unter Wolfen" asari va uning uzbek tilidagi Yanglish Egamova tomonidan qilingan tarjimalariga yondashsak.

Nemis tilida grammatik zamon shakllari ob'ektiv-real vaqtga nisbatan bir xil emas. Ob'ektiv, ya'ni anik vaqt va grammatik zamon quyidagi xususiyatga ko'ra keng ma'noda kompleks tarzda tushunishimiz lozim. Vaqt mazmuni bir jihatdan faqatgina aynan grammatik zamon bilan ifodalanmaydi, balki leksik vositalar ham ifodalanadi.

Masalan. 1. Jetzt kommt er zurück. U hozir qaytib kelyapti. 2. Morgen kommt er zurück. -U ertaga qaytib kelyapti. 3. Neulich kommt er zurück. -U yaqindagina qaytib keldi. Bu gaplarda grammatik zamon shakllari emas, balki leksik vositalar yordamida turli xil zamon ma'nolari ifodalanib kelmoqda. Mana shu holatga asoslangan holda Präsens zamonining polisemantik xususiyatlarini quyidagicha klassifikation tarzda izohlaymiz. 1. Aktuelle Präsens da asosan nutq amalga oshayotgan payt bilan aynan bir vaqt chizigida, bir xil jarayonda sodir bo'layotgan voqea va harakatlarni ifodalab keladi. 2. Was bringst du da angeschleppt? -Sen nimani sudrab kelyapsan? Proll macht drüben die Liste fertig. -Pryol ro'yxat tuzyapti. Ushbu gaplarda davomli jarayon nutq vaqti va kuzatish vaqti bilan bir vaqtda ro'y bermoqda. 1. Ich höre immer, dass es teuer ist, alt zu werden. -Qarilik qimmatga tushishi haqida doim eshitardim. (das iterate Präsens hozirgi zamon davom fe'li). Bu gapda "immer" so'zi kuzatuv vaqtini aniqlashtirmoqda.

Umumiy xulosa va fikrlar, qaytarilib turadigan yoki muntazam amalga oshadigan voqea va ish harakatlar, kuzatish natijalarning barchasini Generelle Präsens umumlashtirib turadi. .Z.B. Was können die schon unternehmen? -Xo'sh, ularning qo'lidan nima kelardi? . Mahbuslar soqchisiz yurishadi, uqdingmi?

Bunda hali bo'lib o'tmagan voqea hodisa yoki ish- harakatni Präsens orqali kelajakka ya'ni bu jarayon aktual bo'lgan, bo'lib utishi yoki amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vaqtga o'tkaziladi. Bu Futurisches Präsensning aniq vaqt ma'nosi payt holi yordamida aniqlashadi. Bu holat o'zbek tiliga kelasi zamon maqsad fe'li, kelasi zamon gumon fe'li shakllari orqali tasvirlanadi. Masalan 1.. Es kommt morgen fort. -U ertaga ketadi. "Morgen" leksik birligi orqali nutq vaqtigacha kechmagan jarayon ifodalanadi. 2. Es wird Zeit, dass du Englisch lernst. -Vaqti kelib, sen inglizcha gapirishga

majbur bo'lasan. Es wird Zeit-jumlasi orqali jarayon vaqti hali oldindaligi oydinlashadi.

Das historische Präsensning asosiy vazifasi hikoya qilinayotgan voqeani jonlantirishdan iborat. Bunda zamon ma'nosi kontekst ma'nosi orqali aniqlashtiriladi. Z.B. "Dann brüllen sie draussen wie die Löwe"-Unda ular tashqarida xuddi ayiqdek

bo'kirishadi. O'z o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Präsens zamoni Aktuelles Präsens hozirgi zamonning asosiy ma'nosi, historisches Präsens va Futurisches Präsens ko'chma ma'nosi, Generelle Präsens va uning muqobillari ko'shimcha ma'nolarni ifodalab keladi.

a) **Aktuelles Präsens da**, asosan, nutq amalga oshayotgan payt bilan aynan bir vaqt chizig'ida, bir xil momentda yuz berayotgan voqea va ish-harakatlarni ifodalanadi. Uning shartli belgilari: **Aktz=Sprz=Betrz, -Mod, + Colloqu, +/-Adv**

Was bringst du da angeschleppt? — Nimani sudrab kelyapsan?

Bu gapda jarayon vaqti, nutq vaqti va kuzatuv vaqti bir-biri bilan tenglashgan modallik yo'q, og'zaki uslub normalariga mutanosib. Qolaversa, ish-harakatning aniq vaqtini ko'rsatib keladigan leksik birlik bo'lmasa-da, uning hozirgi aniq vaqt bilan hozirgi zamon shakli muvofiqligi sezilib turibdi, demak, formulaga to'la mos keladi.

Proll macht drüben die Liste fertig. — Pryol ro'yxat tuzyapti.

Aktuelles Präsens yana ayni paytga moslashtirilgan, uning qolipiga solingan keng qamrovli hamda davom etayotgan jarayonni ifodalash uchun qo'llanadi:

Im Lager existiert eine geheime Organisation der Kommunisten! — Lagerda kommunistlarning yashirin tashkiloti ish olib boryapti.

Na, wo ist denn eure Rote Armee? — Xo'sh, qizil armiyalaring qani endi?

Bu gaplarda davomli jarayon nutq vaqti va kuzatish vaqti bilan bir vaqtda ro'y bermoqda.

Ich höre immer, dass es teuer ist, alt zu werden. — Qarilik qimmatga tushishi haqida doim eshitardim. (das iterate Präsens - Hozirgi zamon davom fe'li) Bu gapda *immer* so'zi kuzatuv vaqtini va jarayon vaqtini aniqlashtirmoqda.

b) **Präsens** umumiy hodisalarni ifodalash uchun qo'llanadi (umumiy xulosa va fikrlar, qaytarilib turadigan yoki muntazam amalga oshadigan voqea va ish-harakatlar, maqollar, kuzatish natijalari kabilarda).

Uning shartli belgilari:

Sprz=Betrz, Sprz va Betrz oldin, keyin va bir paytda Aktz, -Mod+/- Colloqu, -Adv

Bu holatni **das iterative Präsens** (qaytarilib turadigan holat), **das qualitative Präsens** (sub'ektning xususiyati) va **das generelle Präsens** (umumlashtirilgan jarayon) kabi guruhlarga bo'linadi hamda o'zbek tilidagi hozirgi kelasi zamon shakliga mos tushadi:

Was können die schon unternehmen? — Xo'sh, ularning qo'lidan nima kelardi? (das qualitative Präsens-Hozirgi zamon davom fe'li)

Bu gapda so'zlovchi tomonidan jarayon ishtirokchilariga munosabat va jarayonning kechishi ifodalangan bo'lib, unda ham so'zlovchining jarayonga munosabati kuzatish vaqtiga mutanosib.

Bin ich ein Zinker? — Nima men ayg'oqchimanmi? (das qualitative Präsens - Hozirgi zamon davom fe'li)

Nutq vaqtida o'z xususiyati haqida so'z yuritayotgan so'zlovchi kuzatuv vaqtiga yaqinlashmoqda. Modallik sezilmaydi. Aniq vaqtni ko'rsatuvchi leksik belgi mavjud emas.

Die Haftlinge gehen ohne Posten, verstanden? — Mahbuslar soqchisiz yurishadi, uqdingmi? (das iterate Präsens - Hozirgi kelasi zamon)

Jarayon umumlashgan, jarayon vaqti so'zlovchi tomonidan nutq vaqtiga tenglashtirilgan, kuzatish vaqtiga chorlov bor, demak, hali kuzatuv vaqti yetib kelmagan. Badiiy uslubga doir leksik birlik hamda aniq vaqtni ko'rsatuvchi leksik birlik mavjud emas.

Ich bewundere Ihre Ruhe, Herr Komm! — Xotirjamligingizga qoyilman janob kommandant! (das qualitative Präsens - Hozirgi zamon davom fe'li)

Bu gapda so'zlovchi tomonidan sub'ekt xususiyati ochilmoqda. Aniq vaqtni ko'rsatuvchi leksik birlik mavjud emas. Jarayon vaqti umumlashgan va nutq vaqtiga tenglashtirilgan.

s) Präsens "kelajak" semasini boshqarishi mumkin, bunda hali bo'lib o'tmagan voqea-hodisa yoki ish-harakatni bu zamon orqali kelajakka, ya'ni bu jarayon

aktual bo'lgan, bo'lib o'tishi yoki amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vaqtga o'tkaziladi. "**Futurisches Präsens**" aniq vaqt ma'nosi payt holi yordamida konkretlashadi. Bu holat o'zbek tilida "hozirgi kelasi zamon" atamasi bilan birga "kelasi zamon maqsad fe'li", "kelasi zamon gumon fe'li" kabi shakllar orqali tasvirlanadi.

Uning shartli belgilari: **Aktz** = **Betrz** va **Sprz** dan keyin **Betrz**, +/- **Mod**, + **Colloqu**, +/- **Adv**.

Masalan: *Es kommt morgen fort.* — *U ertaga ketadi.*

morgen leksik birligi orqali nutq vaqtigacha kechmagan jarayon ifodalangan. Modallik yo'q.

Ich hole ihm was. — *Unga biron yegulik topib kelaman.*

Aniq vaqtni ko'rsatadigan leksik birlik yo'q. Gapning mazmunidan jarayon hali kechmagani anglashiladi.

Es wird Zeit, dass du Englisch lernst. — *Payti kelib, sen inglizcha gapirishga majbur bo'lasan.*

"Es wird Zeit" jumlasini orqali so'zlovchining jarayonga munosabati, ya'ni modallik ifodalangan, bu jumla orqali jarayon vaqti hali oldindaligi anglashiladi.

d) **Präsens Präterit** ning kontekstual sinonimi vazifasini bajarishi mumkin, bunda hikoya qilinayotgan voqeani jonlantirish asosiy maqsad bo'ladi. Bu formani Präsens historicum (das historische Präsens) deb ataladi. Transpozitsiyaning bu ta'siri o'zbek tilida ham ko'rinadi, bunda "hozirgi kelasi zamon" shaklidan

foydalaniladi. Har ikki tilda ham o'tgan zamon ma'nosi shartli vaqt komponentlari yoki kontekst ma'nosi orqali aniqlashtiriladi. Uning shartli belgilari: **Aktz=Betrz, Sprz** dan oldingi **Betrz** va **Aktz, -Mod, - Colloqu, +Adv**.

Keiner kräht nach uns, hier holt uns auch keiner mehr raus. — Hech kim bizning g'amimizni yemaydi, hech kim bizni bu yerdan olib chiqib ketolmaydi ham.

Dann brüllen sie draußen wie die Löwen. - Unda ular tashqarida ayiqdek

bo'kirishadi.

Bu gapda *dann* leksik belgisi orqali kuzatuv vaqtdan so'ng amalga oshayotgan nutq vaqti va nutq vaqti bilan bir paytda amalga oshayotgan jarayon tasvirlangan. *brüllen sie* — "ular bo'kirishardi" birikmasi orqali jarayon kechayotgani ifodalangan. Modallik yo'q. *brüllen* - "bo'kirmoq" stilistik bo'yoqdor birlik.

e) Das **imperativische Präsens** ma'no shakli imperativning prezensga sinonimik munosabatini ifodalaydi va qat'iy buyruq aspektini yuzaga keltiradi. Bu shakl ham o'zbek tilida hozirgi kelasi zamon orqali ifodalanadi.

Morgen früh bringen Sie die sechzehn Vögel zu mir. — Ertaga ertalab o'sha o'n olti "lochin" ni mening oldimga olib kelasiz.

Morgen früh jumlasida ob'ektiv-aniiq vaqtni va jarayon vaqti oldindaligini ko'rsatmoqda. Modallik so'zlovchining xohishi orqali ifodalanmoqda.

Du gibst ihm das Kind mit. — Bolani o'shanga berib yuborasan.

Morgen geht der Transport an. — Ertaga sostav jo'nab ketadi.

Morgen so'zi yuqoridagi misolda berilgan vazifalarni bajarmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Präsens zamonini aniiq vaqt bilan solishtirish tadqiqi shuni ko'rsatdi-ki, Aktuelles Präsens hozirgi zamonning asosiy ma'nosi, historisches Präsens va Futurisches Präsens ko'chma ma'nosi, Generelles Präsens va uning muqobillari uning qo'shimcha ma'nolari ekanligi oydinlashdi. Historisches Präsens va Futurisches Präsens da jarayon vaqti, ya'ni aniiq - ob'ektiv vaqt Präsensra ko'chirilgan.

Präteritum - hikoya zamon formasidir. U o'zbek tilidagi *o'tgan zamon hikoya fe'li* shakliga to'la mos keladi. U bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni boshqalarga yetkazish maqsadida tasvirlashda yoki biron voqea-hodisa yuzasidan diskussiyaga kirish uchun qo'llaniladi. Bu zamon formasi voqea-hodisalarni uzluksiz tasvirlashga xizmat qiladi:

Präteritum zamon formasining qo'llanish doirasi keng bo'lishiga qaramay, faqat

birgina ma'no formulasiga ega: **Aktz = Betrz, Betrz** va **Aktz Sprz** dan oldin, - **Mod, +/-Colloqu, +/-Adv**

Präteritum da jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir xil, ikkisi ham nutq vaqtidan (Sprz) oldin turadi. Präteritum da modallik faktori bo'lmaydi. U oddiy so'zlashuv nutqida ham, badiiy adabiyotda ham bir xil qo'llanaveradi. Shuning uchun uni hikoya zamoni deb ataladi. Präteritumda majburiy bo'lmagan zamon ko'rsatkichlaridan foydalaniladi (*vorgestern, im vorigen Jahr, neulich 1994* va b.)

(*2009 jahrte sich die Erfindung der Fotografie zum 170.Mai. — 2009 yilda fotografiyaning 170 yilligi nishonlandi*), lekin ular qatnashmagan taqdirda ham o'tgan zamon ma'nosi anglashilaveradi:

Er schlief (gestern) den ganzen Tag. — U (kecha) kun bo'yi uxladi.

(Im vorigen Jahr) absolvierte ich die Universität. — (O'tgan yili) men universitetni tugatdim.

Er kam (neulich) in die Fakultät. — U (hozirgina) fakul'tetga keldi.

Bu xususiyatlar o'zbek tilida ham bir xil ko'rinishga ega. So'zlovchi tomonidan boshdan kechirilgan holat tasvirlanganda (*erlebte Rede*) Präteritum ba'zan ayni paytdagi voqea-hodisani ifodalash uchun uslub vositasi vazifasini bajaradi. Bunda shaxsning ichki kechinmalari (monolog, fikrlash jarayoni va .6.) ish-harakat bajarayotgan shaxs perspektivalari qayta tasvirlanadi. *Erlebte Rede* bosh gap shakli mavjud bo'ladi.

Er fragte den Arzt: "Bin ich wirklich so schwer krank?" — U vrachdan so'radi: "Men rostdan ham og'ir kasalmanmi?" (direkte Rede- Ko'chirma ran.)

Er fragte sich, ob er wirklich so schwer krank sei.—U o'zidan rostdan ham og'ir kasal ekanligini so'radi. (indirekte Rede-O'zlashtirma ran)

War er wirklich schwer krank? — Rostdan ham u og'ir kasalmikan? (erlebte Rede — Ichki kechinma)

Präteritum qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lmasa-da, ko'chma ma'nolarda qo'llanishi mumkin.

Ba'zi olimlar bu ma'nolarni qo'shimcha ma'nolar sifatida ko'rsatib o'tishgan. Lekin bunda aniq vaqt o'zgarmagan holda Präsens zamon formasi orqali boshqa zamonga taalluqli voqea tasvirlangani uchun, bu ma'nolarni ko'chma ma'no deyish o'rinli bo'ladi.

Präteritum ba'zan Präsens o'rnida qo'llanib, ayni paytda yuz berayotgan voqea-hodisani ifodalaydi, lekin so'zlovchi nazari avvaldan o'ylangan holat (Betrachtzeit- kuzatuv vaqti)ga yo'nalgan bo'ladi:

Wie war doch Ihre Name? — Sizning ismingiz o'zi nimaydi?

Wie war hier noch ohne Fahrschein? — Kimda yana haydovchilik guvohnomasi yo'q edi?

Frau, ich bekam noch Kompott. — Xonim, men yana sharbat olsam.

Bu holatlarda Präteritum ma'nosini doim Präsens bilan almashtirsa bo'ladi. Shuning uchun uni ba'zi olimlar das präsensische Präteritum deb ataydilar. Bunda u prezentsning asosiy ma'nosiga mos keladi va jarayon (Aktz), nutq (Sprz) va kuzatuv (Betrz) vaqti bir-biri bilan tenglashadi, modallik bo'lmaydi. Ish-harakatning aniq vaqtini ko'rsatib keladigan leksik birlik bo'lmaydi. Präteritum zamon formasi ayrim hollarda Perfekt ning o'rnida qo'llanishi mumkin. Bunda Präsens ning hikoya funktsiyasi kamayadi, ya'ni bu forma suhbatlarda ham qo'llanishi mumkin. Bu holatda haben yoki sein orqali ifodalangan o'tgan zamondagi kesimning davomlilikgi anglashilib turadi.

Präteritum ning bunday shaklida ham ob'ektiv-aniiq vaqt uning asosiy formasidagi kabi qoladi, ya'ni jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir paytda, nutq vaqti (Betrz)dan ilgari keladi.

Ayrim germanist olimlar fikriga ko'ra, Präteritum ko'chma ma'noda Futurum - kelasi zamon formasining o'rnida ham qo'llanishi mumkin. Bunday hollar juda kam uchraydi, lekin uni nazardan qochirmaslik kerak. Bu holat das futurische Präteritum deb nomlangan.

Es hat der Tag, wo er berühmt war, wo alles gedrückt wurde, was er schrieb, und dann würde man sehen, ob es nicht Eindruck auf Inge Holm machen wurde.
(Th. Mann, Tonio Kroger)

Bu holatda Präteritum ning aniiq vaqt mezoni das präsentische Präteritum kabi yana buziladi, ya'ni Nutq vaqti (Sprz) jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) dan oldin keladi: Sprz, so'ngra Aktz=Betrz, -Colloqu, -Adv

Shunga qaramasdan, Präteritum zamon formasining hikoya funktsiyasi saqlab qolinadi va bu zamon formasidan kelasi zamon mazmunini ifodalashdan maqsad ham shu funktsiya sabablidir. Qolaversa, bunday gaplarda, Futurum - kelasi zamon formasida ko'p uchraydigan modallik, ya'ni so'zlovchining munosabati va xohish istagi sezilib turadi. Uslubiy-stilistik funktsiyalar (Colloqu) bajarilmaydi. Aniiq vaqtni ko'rsatib turadigan leksik (Adv) birlik qo'llanilmaydi.

Präteritum uning qo'llanish xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Episches Präteritum, bunda asosan yozma nutqda voqealar tizimi va ketma-ketligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Piaf Edith, 1915-1963, französ. Chansons anger in; sang mit ausdrucks starker Stimme etwas naiv-sentimentale Titel; wurde „ Tragodin des Chansons"; hatte auch im Ausland triumphale Erfolge . — Piaf Edit, 1915-1963, frants. SHanson ko'shiqchisi; favkulodda baland ovozda keskin-sentimental mavzularda

kuylagan; "Shanson tragediyasi " nomini oldi; chet elda ham muvaffaqiyatli natijalarga erishdi.

Bolzano Bernhard (1781 Prag - 18.12.1848 Prag) Vertreter des objektiven Idealismus, der in seiner Religions- und Sozialphilosophie die Gedanken der österreichischen katholischen Aufklärung weiterführte. Er wirkte als Logiker, Mathematiker, Theologe und Sozialethiker und machte sich besonders verdient um die Grundlegung von Logik und Mathematik. B. stammte aus einer Prager Kunsthandlervfamilie. Von 1797 bis 1804 studierte er in Prag Philosophie, Mathematik und Theologie .

Bol'zano Bernxard (1781 Praga — 18.12.1848 Praga) ob'ekt idealizm vakili, u o'z diniy va

sotsial falsafasida Avstriya katolik izoh g'oyalarini davom ettirdi. U mantiqchi, matematik, dinshunos va sotsial-etik va va mantiq va matematikaga qo'shgan hissasi bilan xizmat ko'rsatgan. B. pragalik san'atshunos-hunarmand oilasiga mansub. 1797 yildan 1804 yilgacha u Pragada falsafa, matematika va dinshunoslikdan tahsil oldi.

Og'zaki holda esa televizor yoki radio xabarlarida:

Am I.September 1939 begann der Zweite Weltkrieg, er dauerte fast sechs Jahre und kostete iiber 50 Millionen Menschen das Leben. - 1939 yil 1 sentyabrda Ikkinchi Jahon Urushi boshlandi, u qariyb olti yil davom etdi va 50 milliondan ortiq insonlar joniga zomin bo'ldi. (Deutsche Welle radiosidan).

Demak, nemis tilida Präsens ning o'zbek tilidagi hozirgi zamondan asosiy farqi shunda-ki, u ko'p ma'nolilik (polisemantik) xususiyatga ega va ko'p paradigmatic (xarakterli) va sintagmatic (yaxlit) ma'nolarni bildiradi.

Präsens zamonini aniq vaqt bilan solishtirish tadqiqi shuni ko'rsatdi-ki, Aktuelles Präsens hozirgi zamonning asosiy ma'nosi, historisches Präsens va Futurisches Präsens ko'chma ma'nosi, Generelles Präsens va uning muqobillari uning qo'shimcha ma'nolari ekanligi oydinlashdi. Historisches Präsens va Futurisches Präsens da jarayon vaqti, ya'ni aniq - ob'ektiv vaqt Präsensra ko'chirilgan.

Präteritum zamon formasining qo'llanish doirasi keng bo'lishiga qaramay, faqat birgina ma'no formulasiga ega: **Aktz = Betrz, Betrz** va **Aktz Sprz** dan oldin, **-Mod, +/-Colloqu, +/-Adv**. Präteritum da jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir xil, ikkisi ham nutq vaqtidan (Sprz) oldin turadi. Präteritum da modallik faktori bo'lmaydi. U oddiy so'zlashuv nutqida ham, badiiy adabiyotda ham bir xil qo'llanaveradi. Shuning uchun uni hikoya zamoni deb ataladi. Präteritum da majburiy bo'lmagan zamon ko'rsatkichlaridan foydalaniladi (vorgestern, im vorigen Jahr, neulich 1994 va b.)

Präteritum ba'zan Präsens o'rnida qo'llanib, ayni paytda yuz berayotgan voqea-hodisani ifodalaydi, lekin so'zlovchi nazari avvaldan o'ylangan holat (Betrachtzeit- kuzatuv vaqti)ga yo'nalgan bo'ladi. Präteritum ning bunday

shaklida ham ob'ektiv-aniq vaqt uning asosiy formasidagi kabi qoladi, ya'ni jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir paytda, nutq vaqti (Betrz)dan ilgari keladi.

Wie war doch Ihre Name? — Sizning ismingiz o'zi nimaydi?

b) **Episches Präteritum**, bunda asosan yozma nutqda voqealar tizimi va ketma-ketligini ta'minlashga xizmat qiladi.

II BOB O'zbek tilida fe'lnung zamon kategoriyalari.2.1. O'zbek tilida fe'lnung zamon kategoriyalari.Ma'lumki, harakat (yo holat) ning voqe bo'lish (yoki bo'lmaslik) tushunchasi mantiqan zamon bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni ma'lum bir harakat ma'lum bir zamon (payt, vaqt)da bajarilish yoki bajarilmaslik xususiyatiga ega.Fe'llardagi zamon tushunchasi nisbiy bo'lib, u nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi. Shunga ko'ra, fe'llarda dastlab uch zamon, tushunchasi belgilanadi (o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon). Zamon ma'nosi esa fe'l tarkibida qo'llangan grammatik ko'rsatkichlar orqali reallashadi. Masalan: 1. Ro'paramizda uncha katta bo'lmagan qishloq ko'rinadi. (G'. Tojiboyev.). 2. Kech kuzda... Oltiariqdan Marg'ilonga ko'chganmiz (E.Vohidov.). 3. Hozirgi yoshlarning she'rlarida poeziyamizning eng ilg'or an'analari davom etmoqda (V.V.). 4. Vaqt uchqur qushday uchib o'tyapti (E.V.). 5. Yoshlar uchun ko'nglimda tugib yurgan ba'zi fikrlarni aytmoqchiman (E.V.).Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida o'tgan zamon; uchinchi va to'rtinchisida hozirgi zamon; beshinchisida esa kelasi zamon fe'l formalari qo'llangan. Bu fe'llar tarkibidagi -di, -gan qo'shimchalari o'tgan zamon; -moqda, -yap qo'shimchalari hozirgi zamon; -affiksi esa kelasi zamon ko'rsatkichi sanaladi.Bu misollardagi ajratib ko'rsatilgan (aniqlik yoki ijro mayliga) birlashadi. Zamon kategoriyasi fe'l ifodalagan

harakatning nutq paytiga munosabatini ifodalaydi. Harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatiga qarab fe'ning uch zamoni farqlanadi. O'tgan zamon nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni, hozirgi zamon nutq payti bilan bir vaqtda bajarilayotgan harakatni, kelasi zamon nutq paytidan keyin bajarilayotgan harakatni anglatadi. Fe'ning o'tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarining har qaysisi, o'z navbatida, yana bir necha turlarga bo'linadi. Chunki bu zamon shakllari, vaqtning alohida katta qismlarini ko'rsatish bilan birga, bu qismlar ichidagi kichik paytlarni ham aks ettiradi.

Har bir zamon shakli ma'lum grammatik ko'rsatgichga ega. Zamon shaklini yasovchi vazifasida asosan sifatdash va ravishdash shakllari xizmat qiladi.

Fe'ning zamon shakllari tuzilish jihatidan ikki turga bo'linadi:

1. Sintetik shaklda zamon shakl yasovchi affiks bilan ifodalanadi: *o'qiganman, o'qibsan, keladi, bormoqchi*.

2. Analitik shaklda zamon fe'ning turlicha xoslangan shakllari bilan to'liqsiz fe'ning birikishi orqali ifodalanadi: *o'qir edim, o'qimas eding, o'qimoqchi ekan, o'qiydigan edik*.

O'TGAN ZAMON FE'LI. Fe'ning o'tgan zamon shakllari nutq paytidan ilgari bajarilgan yoki bajarilmagan harakatni bildiradi.

O'tgan zamon fe'l formolari nutqda o'zaro xususiy modal ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Bu esa ularni ichki ma'no turlariga ajratishni taqazo etadi. O'zbek tilshunosligida o'tgan zamon fe'llarining asosan, quyidagi turlari ajratiladi: 1) yaqin o'tgan zamon; 2) uzoq o'tgan zamon; 3) o'tgan zamon hikoya; 4) o'tgan zamon davom; 5) o'tgan zamon maqsad fe'llari.

O'tgan zamon subparadigmasi murakkab shakl yasalishi tizimiga ega bo'lib, dastlab o'tgan zamonning birlamchi yasalish tizimini va ikkilamchi yasalish tizimini ajratish kerak. Birlamchi tizim – affikslar bilan yasalish, sintetik grammatik shakllar tizimi; ikkilamchi tizim – asosan *edi* affiksoidi bilan hosil qilinadigan analitik grammatik shakllar tizimi.

Tarixan *er-* fe'li mavjud bo'lib, keyinchalik bu fe'l leksik ma'no anglatish xususiyatini va shu bilan birga undan turli shakllar yasalishi xususiyatini yo'qotgan. Bu ikki hodisani nazarda tutib ushbu fe'l *to'liqsiz fe'l* deyiladigan bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida to'liqsiz fe'l degan fe'l yo'q, faqat *e-* fe'l asosidan hosil qilingan *edi*, *ekan*, *emish* affiksoidlari mavjud. Bulardan tashqari, *e* asosidan

hosil qilingan *esa*, *emas* ham mavjud bo'lib, allaqachon alohida-alohida til birligiga: *esa* – ta'kid yuklamasiga, *emas* – inkor morfemasiga aylangan. Bulardan *emas* bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydigan affiksoid sifatida ishlatiladi.

Uch affiksoid – *edi*, *ekan*, *emish* garchand asos (*e-*) va affiks (*-di*, *-kan*, *-mish*) qismlaridan tashkil topgani aniq sezilib tursa ham, bunday ma'noli qismlarga ajratilmaydi, yaxlitligicha affiksoid deyiladi. Bu affiksoidlarning ishlatilish doirasi ancha keng bo'lib, shu jumladan fe'lning uzoqroq o'tgan zamon shakllarini yasashda qatnashadi, analitik shakl hosil qiladi.

O'tgan zamonning sintetik shakllari quyidagicha yasaladi:

1) *-di* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan biroz oldin aniq amalga oshgani ifodalanadi, shunga ko'ra aniq yaqin o'tgan zamon shakli deyiladi: *gapir + di + m* kabi.

2) *-gan* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan ancha oldin amalga oshgani ifodalanadi; aniq yaqin o'tgan zamon va uzoqroq o'tgan zamondan farqlab ushbu zamon yasalishini shartli ravishda aniq old o'tgan zamon deb nomlash mumkin: *gapir+gan+man* kabi. Bu zamon shakliga *-dir* gumon yuklamasini qo'shish bilan harakatning aniq bajarilganiga gumon bildiriladi:

gapir + gan + dir + man kabi.

3) *-b* affiksi bilan yasaladi. Bunda harakatning nutq paytidan oldin amalga oshganidan keyinchalik xabardor bo'lish ma'nosi ifodalanadi, shunga ko'ra shartli ravishda darak old o'tgan zamon shakli deb nomlash mumkin: *gapir +ib + san* kabi.

8- §. O'tgan zamonning analitik grammatik shakllari asosan *edi* affiksoidi bilan hosil qilinadi. Bu affiksoid fe'lining o'tgan zamon shakllariga ham, hozirgi zamon shakllariga ham, kelasi zamon shakllariga ham qo'shilib, asosan uzoqroq o'tgan zamon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi:

1. O'tgan zamonning *-di* affiksi bilan yasaladigan sintetik shakli *edi* affiksodi bilan ishlatilmaydi. Qolgan ikki sintetik shaklga *edi* affiksoidi qo'shilib, o'tgan zamonni yana ham oldingiroq o'tgan zamon sathiga ko'chiradi:

1) *-gan* affiksi bilan yasalgan aniq old o'tgan zamon shakliga qo'shilib, bu shakldan uzoqroq aniq o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi: *gapir + gan + edi + m* kabi.

2) *-b* affiksi bilan yasalgan darak old o'tgan zamon shakliga qo'shilib, bu shakldan uzoqroq darak o'tgan zamon ma'nosi ifodalanadi: *gapir + ib + edi + m* kabi. So'zlashuv tilida bu shakl tovush o'zgarishlariga uchrab, *gapiruvdim* tarzida talaffuz qilinadi. Bu yerda *b* tovushi *v* tovushiga, undan oldingi *i* tovushi *u* tovushiga almashadi, *e* tovushi talaffuz qilinmaydi.

1. Yaqin (aniq) o'tgan zamon. Fe'l o'zagiga *-di* zamon yasovchisi va shaxs-son affiksining ikkinchi shaklini qo'shish bilan hosil qilinadi va u ish-harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so'zlovchining ko'z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganligini ifodalaydi.

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	oldim	oldik
2-shaxs	olding	oldingiz
3-shaxs	oldi	oldilar

Bu ma'no tomonidan o'tmishda aniq bajarilgan harakatni ko'rsatib, so'zlovchi uni o'zi ko'rgandek, o'zi shu harakatning guvohi sifatida xabar beradi: *Deputatlar bilan uchrashuv samimiy o'tdi.*

2. Uzoq o'tgan zamon shaklining turlari ikki yo'l bilan hosil qilinadi:

1. **-gan** affiksi orqali yasalgan sifatdoshlarga shaxs-sonni birinchi shaklini qo‘shish orqali.

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	olganman	olganmiz
2-shaxs	olgansan	olgansiz
3-shaxs	olgan	olganlar

2. **-gan** shaklidagi sifatdosh va to‘liqsiz fe’ldan tuzilgan analitik shaklni shaxs-son bilan tuslash orqali hosil qilinadi:

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	olgan edim	olgan edik
2-shaxs	olgan eding	olgan edingiz
3-shaxs	olgan edi	olgan edilar

To‘liqsiz fe’l sifatida *edi* qatnashsa, o‘tmishda harakatning aniq bo‘lganligi qayd qilinadi: *Bu voqea o‘tgan yili bo‘lgan edi.*

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	olgan ekanman	olgan ekanmiz
2-shaxs	olgan ekansan	olgan ekansiz
3-shaxs	olgan ekan	olgan ekanlar

To‘liqsiz fe’l sifatida *ekan* qatnashsa, harakatning o‘tmishda voqe bo‘lganligi so‘zlovchiga keyinchalik ma’lum bo‘lgani ifodalanadi, so‘zlovchining diqqati nutq paytida mavjud bo‘lgan harakatning natijasiga qaratiladi: *Ko‘p vaqtlar o‘qituvchilik ham qilgan ekanlar.*

	Birlik	Ko‘plik
1-shaxs	olgan emishman	olgan emishmiz
2-shaxs	olgan emishsan	olgan emishsiz
3-shaxs	olgan emish	olgan emishlar

To‘liqsiz fe’l sifatida *emish* kelsa, eshitganlik ma’nosi harakatning o‘tmishda bo‘lgan-bo‘lmaganligi noaniq, gumon ekanligi ifodalanadi: *Qalbi butkul shodlikka to‘lgan emish.*

3. O'tgan zamon hikoya fe'li shakli -b, -ib affiksi orqali yasalgan ravishdoshni yoki to'liqsiz fe'lni tuslashdan hosil bo'ladi:

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olibman	olibmiz
2-shaxs	olibsan	olibsiz
3-shaxs	olibdi	olibdilar

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olib edim	olib edik
2-shaxs	olib eding	olib edingiz
3-shaxs	olib edi	olib edilar

Bu shakllar nutq paytidan ancha ilgari bajarilgan harakatni hikoya qilish yo'li bilan bildiradi: *Ukamni hozirgina yuborib edim.*

4. O'tgan zamon davom fe'li -r, -ar, -mas sifatdosh shaklidan so'ng to'liqsiz fe'lni keltirib tuslashdan hosil bo'ladi:

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olar edim	olar edik
2-shaxs	olar eding	olar edingiz
3-shaxs	olar edi	olar edilar

Bu shakl nutq paytidan ilgari ma'lum bir davr ichida davom qilib turgan yoki takrorlanib turgan harakatni bildiradi.

5. O'tgan zamon maqsad fe'li nutq so'zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo uning voqe bo'lmaganligini eslatadigan ish-harakatni ifodalaydi. -*moqchi*, -*digan* affiksiga edi to'liqsiz fe'lni qo'shib tuslashdan hosil bo'ladi:

	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	olmoqchi edim	olmoqchi edik
2-shaxs	olmoqchi eding	olmoqchi edingiz
3-shaxs	olmoqchi edi	olmoqchi edilar
1-shaxs	oladigan edim	oladigan edik

2-shaxs oladigan eding oladigan edingiz

3-shaxs oladigan edi oladigan edilar

HOZIRGI ZAMON FE'LI. Ish-harakatning nutq soʻzlanib turgan paytda bajarilayotgan-bajarilmayotganini ifodalaydi va ikki turli boʻladi:

1. Hozirgi-kelasi zamon feʼli nutq soʻzlanib turgan paytda va undan keyin sodir boʻladigan harakatni va doimiy harakatni ifodalaydi.

-a, -y ravishdosh yasovchi qoʻshimchasini feʼl oʻzagiga qoʻshish va 1-shakl bilan tushlashdan hosil boʻladi:

Birlik Koʻplik

1-shaxs olaman oʻqiyman olamiz oʻqiymiz

2-shaxs olasan oʻqiysan olasiz oʻqiysiz

3-shaxs oladi oʻqiydi oladilar oʻqiydilar

Hozirgi-kelasi zamon shakli bir necha maʼnoda qoʻllanadi:

1. Nutq paytida bajarilayotgan va nutq paytidan keyin ham davom etadigan harakatni bildiradi: *Oʻktam uzoqqa tikiladi, tanish joylarni birma-bir soʻroqlaydi.*

2. Nutq paytidan keyin bajariladigan harakatni – kelasi zamonni bildiradi: *Ertaga bugʻdoy oʻtogʻiga boramiz.*

3. Zamonda umumiylik maʼnosini bildiradi: *Har kun tinmay paxtasiga ishlaydi.*

4. Nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni bildiradi: *Oʻqish boshlandi: yuraklarda zavq qaynaydi.*

2. Hozirgi zamon davom feʼli (aniq hozirgi zamon shakli) ish-harakatning nutq soʻzlanib turgan paytdan oldin boshlanib, nutq paytida ham aniq davom etib turganini bildiradi. Feʼl oʻzagiga -yap, -yotir, -moqda, -yotib affikslarni qoʻshish 1- shakl bilan tushlash orqali hosil qilinadi:

Birlik Koʻplik

1-shaxs olyapman olyapmiz

2-shaxs	olyapsan	olyapsizlar
---------	----------	-------------

3-shaxs	olyapti	olyaptilar
---------	---------	------------

Birlik Ko'plik

1-shaxs	olayotirman	olayotirmiz
---------	-------------	-------------

2-shaxs	olayotirsan	olayotirsiz
---------	-------------	-------------

3-shaxs	olayotir	olayotirlar
---------	----------	-------------

KELASI ZAMON FE'LI. **Kelasi zamon shakli** ish-harakatning nutq soʻzlanib turilgandan soʻng bajarilishi yoki bajarilmasligini bildiradi va ikki turli boʻladi:

1. Kelasi zamon gumon fe'li ish-harakatning nutq soʻzlangandan soʻng bajarilish-bajarilmasligi moʻljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi fe'l oʻzak-negiziga sifatdoshninng -r, -ar , -mas shaklini qoʻshish va shaxs-sonning 1- shakli bilan tushlashdan hosil qilinadi:

	Birlik	Ko'plik
--	--------	---------

1-shaxs	olarman	olarmiz
---------	---------	---------

2-shaxs	olarsan	olarsiz
---------	---------	---------

3-shaxs	olar	olarlar
---------	------	---------

Kelasi zamon gumon fe'lining arxaik shakli ol-ur-man shaklida yasalgan. Bu shakl hozir qat'iylik ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladi.

2. Kelasi zamon maqsad fe'li nutq soʻzlangan paytdan soʻng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi, fe'l oʻzak-negiziga -moqchi, -digan affiksini qoʻshish va 2- shakl bilan tushlashdan hosil boʻladi.

	Birlik	Ko'plik
--	--------	---------

1-shaxs	olmoqchiman	olmoqchimiz
---------	-------------	-------------

2-shaxs	olmoqchisan	olmoqchisiz
---------	-------------	-------------

3-shaxs	olmoqchi	olmoqchilar
---------	----------	-------------

U. Tursunov darsligida (4-343) kelasi zamonni 4 turga bo'radi:

1. Aniq kelasi zamon shakli (-ajak, -gu).
2. Kelasi zamon maqsad shakli (-moqchi).
3. Kelasi zamon gumon shakli (-r, -ar, -mas).
4. Kelasi zamon lozim shakli (-digan).

2.2. O'zbek tilida fe'l zamonlarining sintaktik va semantik jihatdan tasniflanishi

Fe'l so'z turkumining asosiy shakllari gapda kesim vazifasida bo'lib kelishidir. Ushbu so'z turkumning noaniq shakllari bo'lmish harakat nomi shakli otning, sifatdosh shakli esa sifatning, ravishdosh shakli ravish so'z turkumlarining sintaktik vazifalarini bajarib keladi.

Bundan tashqari fe'lning o'timli va o'timsiz shakllari ham ushbu so'z turkumning sintaktik xususiyatiga kiradi. Mustaqil fe'llar obyektga munosabatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Bular quyidagilar: 1.O'timli fe'llar. 2.O'timsiz fe'llar.

O'timli fe'llar tushum kelishigidagi so'zlarni boshqarib keladi. Ushbu fe'llar **"kimni? nimani? qayerni?"** so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: ko'r, o'qi, yoz, bil, tani, eshit, tingla.

O'timsiz fe'llar yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Masalan: yayra, kel, bor, kul, yugur, o'tir. Fe'l so'z turkumi ish-harakatni bildiruvchi so'zlar turkumi hisoblanadi. Masalan: Bahor keldi va gullar ochildi.

Fe'l so'z turkumi 5 ta grammatik kategoriyaga ega. Bundan tashqari fe'l so'z turkumi murakkab yasaliş tizimiga, 3ta sintetik va bir nechta analitik vazifa

shakliga hamda ish-harakatning davomiyligi va kuchsiz darajasini bildiruvchi qo'shimchalarga ega.

O'zbek tili fe'l so'z turkumlarining asosiy so'roqlari quyidagilar: "nima qilmoq?" va "nima bo'lmoq?" Bundan tashqari fe'l nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Fe'l so'z turkumining so'roqlari so'roq olmoshi emas, balki qo'shma fe'l hisoblanadi. Fe'lning so'roqlariga yakka holatlarda boshqa birorta so'z turkumlariga javob bo'la olmaydi. Lekin fe'l so'z turkumi o'zining noaniq shakllaridan iborat sifatdash shaklida sifat so'z turkumi, harakat nomi shaklida va otlashgan sifatdash shaklida ot so'z turkumi va ravishdash shaklida ravish so'z turkumining so'roqlariga javob bo'la oladi.

Fe'l so'z turkumiga oid so'zlar ifodalab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga bo'linadi. Shaxsning jismoniy faoliyat natijasida sodir bo'lgan harakatni bildiruvchi fe'llar **harakat fe'llari** hisoblanadi. Shaxsning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar esa **holat fe'llari** hisoblanadi.

Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra 2ta asosiy guruhlariga bo'linadi.

1. Mustaqil fe'llar. 2. Yordamchi fe'llar

Mustaqil fe'llar gapda ish-harakat va holatni bildirib keladi, ya'nimustaqil ravishda lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, gapda biror bir so'roqqa javob bo'la oladi, hamda yakka hollarda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi, gapda biror bir so'roqqa javob bo'la olmaydi va yakka holatlarda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi. O'zbek tilida yordamchi fe'llar o'z ichida yana 3 guruhga bo'linadi: Bular quyidagilar:

1. Yordamchi fe'llar

2. Ko'makchi fe'llar

3. To'liqsiz fe'llar

Yordamchi fe'llar ushbu toifadagi fe'llar fe'l bo'lmagan so'zdan qo'shma fe'l yasash uchun xizmat qiladi yoki ot kesim yonida kelib, bog'lama vazifasini bajarib

keladi. Masalan: **taklif qilmoq, javob bermoq, ruxsat etmoq, g'olib hisoblanmoq**. Ko'makchi fe'llar ushbu doiradagi fe'llar etakchi fe'llarga birikib, ularga qo'shimcha ma'no yuklab keladi. Masalan: **o'qib bo'lmoq, yozib bo'lmoq, yozib olmoq, o'qib olmoq, o'qib yurmoq, yoza olmoq, o'qiy olmoq, yoza turmoq**.

To'liqsiz fe'llar ushbu fe'llar fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlarga qo'shilib kelib, yordamchi vazifalarda qo'llanib keladi. Ushbu guruhdagi "**edi, ekan, emish, emas, esa**" to'liqsiz fe'llari o'z xususiyatlarini yig'ishtirib, zidlov bog'lovchilari guruhiga ko'chib o'tgan.

O'zbek tili fe'l so'z turkumining eng ahamiyatli jihati shundan iboratki, hech qachon affiksasiya usuli bilan fe'ldan fe'l yasab bo'lmaydi.

O'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarining har biri mahsus grammatik shakllar orqali ifodalanishini yuqorida ko'rib chiqdik. Ammo bir zamon shaklining boshqa bir zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi ham uchrab turadi. Ushbu hodisa ma'lum uslub talabi bilan sodir bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi.

O'tgan, hozirgi va kelasi zamon ma'nolarining har biri maxsus shakl orqali ifodalanishini yuqorida ko'rsatdik. Ammo bir zamon shaklining boshqa zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi ham uchrab turadi. Bu hodisa ma'lum uslub talabi bilan bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi.

Yaqin o'tgan zamon shakli *-di* kelasi va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanishi mumkin. *Hozir qorong'uda qayoqqa bordig-u, nimayam qildik (qayoqqa boramiz-u, nimayam qilamiz).*

Hozirgi zamon fe'linining kelasi zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo'llanishi asosan **ket, bor, yubor, boshla** kabi fe'llar doirasida uchraydi: *Bularni sayohatga yuboryapmiz. Biz o'qishga ketyapmiz. Bugun terimni boshlayapmiz.*

Hozirgi zamon shaklining o'tgan zamonga oid harakatni ifolash uchun

qo‘llanishi: *Kecha dalada chunonam ketmon chopyaptiki. Bir kuni darchani buzaman deb bolta ko‘tarib kelayotibdi.*

Yot, yur, tur, o‘tir ko‘makchi fe‘llariga o‘tgan zamon hikoya fe‘li qo‘shilganda hozirgi zamon davom fe‘li ma‘nosini ifodalaydi: *o‘qib yotibman, o‘qib turibman, o‘qib yuribman, o‘qib o‘tiribman.* Ba‘zi fe‘llar bir ma‘nosi bilan o‘timsiz fe‘l xususiyatini, ikkinchi ma‘nosi bilan esa o‘timlilik xususiyatini ifodalab kelishi mumkin. Masalan: Ozgina piyoda yurdik-o‘timsiz. U uch kun yo‘l yuribdi. -O‘timli "bosib o‘tibdi" ma‘nosida; maktab o‘qiyman-o‘timsiz; kitob o‘qidim-o‘timli.

O‘zbek tilida o‘tgan zamon shakllaridan "-di" qo‘shimchasi yordamida yasaluvchi shaklning kelasi zamon va hozirgi zamon ma‘nolarida qo‘llanish holatlari mavjud. Masalan: Hozir qorong‘uda qayoqqa bordig-u, nimayam qildik.

Bir vaqtga oid voqea hodisalarni bayon etishda "-gan" qo‘shimchasi bilan yasaluvchi o‘tgan zamon shaklining ba‘zan hozirgi zamon ma‘nosida qo‘llanib ham kelishi mumkin. Masalan: Birov kitob o‘qigan, kimlar shaxmat atrofida.

Ushbu qo‘shimcha bilan yasaluvchi shaklning holat ifodalay olishi hususiyati uning shu ma‘noda qo‘llanishga imkon beradi. Hozirgi zamon fe‘lining kelasi zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo‘llash asosida uzbek tilida "**ket, bor, yubor, boshla**", kabi fe‘llar doirasida uchraydi. Bunda so‘zlovchi subyektning harakatini ifodalash uchun bajarishga kirishgan kabi tasvirlaydi. Masalan: Bularni boshqa bo‘limga o‘tkazayapmiz.

Hozirgi zamon shaklining o‘tgan zamonga oid harakatni ifodalash uchun qo‘llanishi ko‘p uchraydi. Bunday holatlarda so‘zlovchi o‘zini o‘tgan zamonga oladi va harakatni bevosita kuzatuvchi sifatida bayon etadi. Masalan: Kecha dalada chunonam chekanka qilyaptiki, bamisoli usta sartarosh poparatka qilyapti deysan.

(Said Ahmad).

Bundan tashqari hozirgi zamon kelasi zamon o‘rnida kelish holatlari ham mavjud. Masalan: Bugun Qarshiga jo‘nab ketyapman.

Hozirgi-kelasi zamon shakli o‘tgan zamon o‘rnida qo‘llanishi mumkin. Masalan: Alisher navoiy 1441-yilda tug‘ilgan.

Xulosa.

Til kundalik hayotda o'z fikrlarimizni to'liq bayon etishimizda asosiy vositachi vazifasini o'taydiki, har kungi nutqimizdan anglashilayotgan turli ma'nolarni yuzaga chiqishida til yordamga keladi. Til ijtimoiy hodisa bo'lib, vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi va tabiiyki bu borada tilshunos olimlar yangidan – yangi izlanishlarni amalga oshirishlarini talab qiladi.

Biz ham o'z navbatida bitiruv malakaviy ishimizda nemis va o'zbek tillarida fe'l zamonlar tizimini grammatik jihatdan tasniflab o'rganishga harakat qildik. Nemis va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqil fe'llar gapda ish-harakat va holatni bildirib keladi, ya'ni mustaqil ravishda lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, gapda biror bir so'roqqa javob bo'la oladi, hamda yakka hollarda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.
2. Yordamchi fe'llar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi, gapda biror bir so'roqqa javob bo'la olmaydi va yakka holatlarda gap bo'lagi bo'lib kela olmaydi.
3. O'zbek tili fe'l so'z turkumining eng ahamiyatli jihati shundan iboratki, hech qachon affiksatsiya usuli bilan fe'ldan fe'l yasab bo'lmaydi.

4.O'zbek tili fe'l so'z turkumida qo'shimcha qo'shish yo'li orqali otdan ot, sifatdan sifat, ravishdan ravish yasalishi mumkin. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, o'zbek tilida fe'l yasovchi qo'shimchalar juda ko'pchilikni tashkil qiladi.

5. Fe'l so'z turkumining asosiy shakllari gapda kesim vazifasida bo'lib kelishidir. Ushbu so'z turkumning noaniq shakllari bo'lmish harakat nomi shakli otning, sifatdash shakli esa sifatning, ravishdash shakli ravish so'z turkumlarining sintaktik vazifalarini bajarib keladi.

6.O'zbek tilida ba'zi fe'llar bir ma'nosi bilan o'timsiz fe'l xususiyatini, ikkinchi ma'nosi bilan esa o'timlilik xususiyatini ifodalab kelishi mumkin. Masalan: Ozgina piyoda yurdik-o'timsiz. U uch kun yo'l yuribdi. -O'timli "bosib o'tibdi" ma'nosida; maktab o'qiyman-o'timsiz; kitob o'qidim-o'timli.

7.O'zbek tilida o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarining har biri maxsus grammatik shakllar orqali ifodalanadi. Ammo bir zamon shaklining boshqa bir zamon shakliga xos ma'noda qo'llanishi ham uchrab turadi. Ushbu hodisa ma'lum uslub talabi bilan sodir bo'ladi. Harakatning qaysi zamonga oidligi esa umumiy holatdan sezilib turadi.

8. Nemis tilida asosiy fe'llar quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a)Harakat ma'nosini bildirib kelib, mustaqil ma'nolarga ega bo'ladi va gapda uning biror bo'lagi bo'lib keladi;

b) Biror bir so'zni boshqarib kelish xususiyatiga ega.

c)Harakatning ob'ektga bo'lgan munosabatiga qarab mustaqil fe'llar ikki guruhga bo'linadi.

d)Ob'ektli fe'llar, ya'ni o'timli fe'llar bildiradigan harakat ob'ekt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi va bunday fe'llar tushum kelishigidagi oid so'zlarni boshqarib keladi. Nemis tilidagi qolgan boshqa fe'llar bunday xususiyatga ega bo'lmaydi. Masalan. nehm-en-olmoq, fragen-so'ramoq

e)Ob'ektsiz fe'llar, ya'ni o'timsiz fe'llar bularga schlafen- uxlamoq, kommen-kelmoq kabi tushum kelishigi vazifasiga kirmaydigan so'zlar guruhining barchasini o'z ichiga qamrab oladi.

g) Fe'l bildirgan harakat ob'ektiv harakatning tildagi ifodasi hisoblanadi.

9. Ish-harakatning bajarilishi, albatta zamon, vaqt doirasida bo'ladi. Shunga ko'ra ish-harakat zamon ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi va fe'llar zamon ma'nosini ifodalovchi shakllarga ham ega bo'ladi. Masalan. Er geht in die Schule-U maktabga boryapti. -Hozirgi zamon ma'nosida qo'llanyapti. Sie arbeiteten im Garten-Ular bog'da ishladilar. -O'tgan zamon ma'nosida;

10. Morfologik jihatdan fe'llar quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi:

a) Starken Verben-kuchli fe'lllar; b) Die schwachen Verben-kuchsiz fe'lllar; d) Die Verben präteritopräsentia e) Die unregelmäßigen Verben-nomuntazam fe'llar

11. Nemis tili fe'l so'z turkumining sintaktik jihatdan tasniflanishi o'z ichida ikki guruhga bo'linib tadqiq etiladi. Bular quyidagilar. 1. Sub'ektiv fe'llar 2. Ob'ektiv fe'llar.

Sub'ektiv fe'llar asosan voqea-hodisani ifodalab kelib, voqea-hodisa boshqa hodisaga va boshqa narsaga aloqador bo'lmaydi. Masalan ushbu fe'llarga **"liegen-yotmoq, gliihen-toblanmoq, qizishmoq, bleiben-qolmoq"** kabi ko'pgina fe'llarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu fe'llar hech qachon ob'ektiv bo'la olmaydi.

Ob'ektiv fe'llar esa voqea-hodisani belgilab kelib, bular boshqa shaxs va narsalarga bog'liq bo'ladi. Bunday fe'llar toifasiga **"geben-bermoq, nehmen-olmoq, fragen-so'ramoq, sich erinnern-eslamoq"** kabi fe'llar misol bo'la oladi.

12. Nemis tilida Präsens ning o'zbek tilidagi hozirgi zamondan asosiy farqi shundaki, u ko'p ma'nolilik (polisemantik) xususiyatga ega va ko'p paradigmatic (xarakterli) va sintagmatic (yaxlit) ma'nolarni bildiradi.

13. Präsens zamonini aniq vaqt bilan solishtirish tadqiqi shuni ko'rsatdi-ki, Aktuelles Präsens hozirgi zamonning asosiy ma'nosi, historisches Präsens va Futurisches Präsens ko'chma ma'nosi, Generelles Präsens va uning muqobillari uning qo'shimcha ma'nolari ekanligi oydinlashdi. Historisches Präsens va Futurisches Präsens da jarayon vaqti, ya'ni aniq - ob'ektiv vaqt Präsensra ko'chirilgan.

14. **Präteritum** zamon formasining qo'llanish doirasi keng bo'lishiga qaramay, faqat birgina ma'no formulasiga ega: **Aktz = Betrz, Betrz** va **Aktz Sprz** dan oldin, **-Mod, +/-Colloqu, +/-Adv**. Präteritum da jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir xil, ikkisi ham nutq vaqtidan (Sprz) oldin turadi. Präteritum da modallik faktori bo'lmaydi. U oddiy so'zlashuv nutqida ham, badiiy adabiyotda ham bir xil qo'llanaveradi. Shuning uchun uni hikoya zamoni deb ataladi. Präteritum da majburiy bo'lmagan zamon ko'rsatkichlaridan foydalaniladi (vorgestern, im vorigen Jahr, neulich 1994 va b.)

15.a) Präteritum ba'zan Präsens o'rnida qo'llanib, ayni paytda yuz berayotgan voqea-hodisani ifodalaydi, lekin so'zlovchi nazari avvaldan o'ylangan holat (Betrachtzeit- kuzatuv vaqti)ga yo'nalgan bo'ladi. Präteritum ning bunday shaklida ham ob'ektiv-aniq vaqt uning asosiy formasidagi kabi qoladi, ya'ni jarayon vaqti (Aktz) va kuzatuv vaqti (Betrz) bir paytda, nutq vaqti (Betrz)dan ilgari keladi.

Wie war doch Ihre Name? — Sizning ismingiz o'zi nimaydi?

b) **Episches Präteritum**, bunda asosan yozma nutqda voqealar tizimi va ketma-ketligini ta'minlashga xizmat qiladi.

PRÄSENS

a) Aktuelles Präsens

1. Was bringst du da angeschleppt? - Nimani sudrab kelyapsan?
2. Pröll macht drüben die Liste fertig. - Pryol ro'yxat tuzyapti.
3. Im Lager existiert eine geheime Organisation der Kommunisten!- Lagerda kommunistlarning yashirin tashkiloti ish olib boryapti.
4. Na, wo ist denn eure Rote Armee? - Xo'sh, qizil armiyalaring qani endi?
5. Ich höre immer, dass es teuer ist, alt zu werden. - Qarilik qimmatga tushishi haqida doim eshitardim.

b) das iterative Präsens, das qualitative Präsens, das generelle Präsens

1. Was können die schon unternehmen? - Xo'sh, ularning qo'lidan nima kelardi?
2. Bin ich ein Zinker? -Nima men ayg'oqchimanmi?
3. Die Haftlinge gehen ohne Posten, verstanden?- Mahbuslar soqchisiz yurishadi, uqdingmi?
4. Ich bewundere Ihre Ruhe, Herr Kommandant! - Xotirjamligingizga qoyilman janob kommandant!

s) futurisches Präsens

1. Es kommt morgen fort.- U ertaga ketadi.
2. Ich hole ihm was.- Unga biron yegulik topib kelaman.
3. Es wird Zeit, dass du Englisch lernst. - Payti kelib, sen inglizcha gapirishga majbur bo'lasan.

d) Präsens Präterit

1.Keiner kraht nach uns, hier holt uns auch keiner mehr raus. - Hech kim bizning g'amimizni yemaydi, hech kim bizni bu yer dan olib chiqib ketolmaydi ham.

2.Dann briillen sie drauBen wie die Lowen. - Unda ular tashqarida ayiqdek bo'kirishadi.

e) imperativische Präsens

1. Morgen früh bringen Sie die sechzehn Vogel zu mir. - Ertaga ertalab o'sha o'n olti "lochin"ni mening oldimga olib kelasiz.

2. Du gibst ihm das Kind mit. - Bolani o'shanga berib yuborasan.

Morgen geht der Transport ab. - Ertaga sostav jo'nab ketadi.

Marie Luise, Schriftsteller - Mari Luize, Yozuvchi,

H.Qo'chqorova tarjimai

1.Sie legt mir die Hand auf die Schulter und ich sage, ja, liebes Kind, oder, ist was? (S.l 17) - U qo'llarini yelkamga qo'yadi, men esa: "Ha, erkatoyim, nima bo'ldi?" - deyman. (H.Q. 65-b.)

2.Wenn ich, wie eben, ungeduldig antworte, zieht sie sich sofort zurück (S.l 17) - Agar men aytyalik shu gapni shoshilib aytsam, u tez orqasiga qaytadi. (H.Q. 65-6.)

3.Am nächsten oder übernächsten Tag sollte ich mich dort vorstellen, unter Umstände gleich im Krankenhaus bleiben. (S. 131.)- Ertaga yoki indinga klinikada yotadigan bo'ldim. (H.Q. 73-6.)

4.Ich höre immer, dass es teuer ist, alt zu werden. (S. 129.) - Qarilik qimmatga tushishi haqida doim eshitardim. (H.Q. 72-6.)

5.Ich höre immer, dass es teuer ist, alt zu werden, und für diese Zeit soll meine Frau einen Notpfennig haben. (S. 129.) - Qarilik qimmatga tushishi haqida doim eshitardim, hech bo'lmasa ayolim keksayganda qiynalib qolmasligi uchun pul jamg'arib qo'ymog'im lozim. (H.Q. 72-6.)

6.Wenn ich allein in meinem Zimmer bin, bucke ich mich und hebe einen Schweren Stapel von Büchern auf den Tisch, welche Übung ich zehn oder zwanzig Mal wiederhole. (S.128.) -Stol ustida turgan kitoblarni choyshabga o'rab, mahkam qilib tugdimda, o'n, yigirma marta ko'tarib ko'rdim. (H.Q. 72-6.)

7.Du musst neue Leute kennenlernen. (S. 126.) - Sen yangi odamlar bilan tanishishing kerak. (H.Q. 70-6.)

8.Keine Schriftsteller, sagte ich gleich, als meine Frau sich mir gegenüber setzte, um eine Liste der einzelnen Gäste zu machen. (S.126.) - "Yozuvchilardan hech kimni taklif qilmaymizmi?" - degan edim. (H.Q. 70-6.)

9.Ich weiß auch, dass es sie schwer ankommen würde, mich mit einem diesen Mädchen zu verkuppeln. Sie muss um mich große Sorgen machen. (S.127.) – AMMO shuni ham bilardimki, uning o'zi ham go'zal qizlar davrasida bo'lishimni xushlaymaydi. Bugun bunga qanday kuch topdi ekan? (H.Q. 71-6.)

10.Übrigens sei ich doch wohl in der Lage, eine Reise zu machen mit Gerda oder auch allein. (S.125.) - Xullas, gapning qisqasi - ayni paytda sen Gerdani olib yoki yakka o'zing mazza qilib sayohatga chiqib kel. (H.Q. 70-6.)

11.Überhaupt ist er kein dummer Mensch. (S. 123.) - U ham har qalay axmoq emasku. (H.Q. 69-6.)

12. Es scheint, dass sie beginnt, sie um mich große Sorgen zu machen. (S.122.) - Uning qayg'usi ortida men turgan edim. (H.Q. 69-6.)

13.Sie geht mit mir um wie mit einem Kranken, wobei es sie nur zu verwirren scheint, dass ich so guter Laune bin. (S. 120.) - Uni bunga uzoq tayyorlash kerak, yo'qsa u meni ijodiy tanazzulga uchrabdi deb o'ylashi aniq, keyin esa kayfiyatimni

ko'tarish uchun o'ta ehtiyotkorlik bilan, xuddi bemordek munosabatda bo'ladi. (H.Q. 67-6.)

14.Die Zeit, die ich durch dass Nichtbeantworten der Post gewinne, benutze ich dazu, mich mit meiner Zukunft zu beschäftigen. (S.120.) - Gohida xatlarga javob yozishni ko'nglim xushlamay qolsa, bunday kunlarimdan ham unumli foydalangan bo'lib, kelajagim haqida qayg'uraman. (H.Q. 67-6.)

15.Die Briefe zu zerreißen, wage ich nicht. (S. 120.) - Kelgan xatlarni ba'zi birovlar singari yirtib tashlashga qo'lim bormaydi. (H.Q. 67-6.)

16.Dass ich mich immer noch so viel mit meinem früheren Leben, dem eines Schriftstellers, beschäftigen muss, verdrießt mich sehr. (S.120.) - Ba'zan haliyam yozuvchilik hayotim meni tinch qo'ymayotganga o'xshaydi. (H.Q. 67-6.)

17.Natürlich sage ich meiner Frau von meiner Absicht, den Beruf zu wechseln, nichts. (S. 120.) - Albatta xotinimga kasbimni almashtirish istagim borligini aytmayman. (H.Q. 64-6.)

18. Zuweilen, wenn ich nach Hause komme, gehe ich in die Kühe und biete meiner Frau an, ihr beider Bereitung des Mittagessens behilflich zu sein. (S. 119.) - Uyga qaytgach, zerikkanimdan oshxonaga kirib xotinimdan unga tushlikni tayyorlashda qarashgim kelayotganini aytaman. (H.Q. 66 b.)

19.Es wird schwer sein, ihr zu erklären. (S.l 19.) - Unga tushuntirish mushkul ish.(H.Q.66-6.)

20.Sie hat die Vorstellung, ein Mann brauche das Alleinsein, wenigstens von Zeit zu Zeit, furchtet wohl auch, mich bei etwaigen Gesprächen mit meinen Kollegen zu stören. (S.l 18.) -Uning tasavvuricha, erkak kishi vaqti-vaqti bilan yolg'iz qolmogi kerak, uning o'zi esa mening hamkasblarim bilan suhbatimda xalal berishni istamaydi. (H.Q. 65-6.)

21.Sie selbst pflegt bei solchen Anlässen zu Hause zu bleiben. (S.l 18.) - U bunday yumushlarni uyda qolgan kunlari bajarib qo'yadi. (H.Q. 65-6.)

22.Außerdem kontrolliert meine Frau mich nicht. (S.l 17.)-Bundan tashqari rafiqam meni nazorat qilmaydi. (H.Q. 65-6.)

23.Dass ich überhaupt nicht mehr arbeite, weiss sie nicht. (S.l 17.) - Mening umuman ishlayotganimdan bechoraning hatto xabari yo'q. (H.Q. 65-6.)

Emine Sevgi Osdamar, Mein Istanbul - Emine Sevgi O'zdamar,

Mening Istanbulim, Ya.Egamova tarjimasi

1.Ich will sie im Himmel suchen.(S.67) -Men bolalarimni osmondan izlashim kerak.(56-6)

2.Jetzt stehe ich wieder hier und schaue die Gesichter der Menschen an, die an mir vorbeilaufen. (S.74) - Hozir ham men shu yer da turibman hamda yonimda o'tib ketayotgan odamlarning yuzlariga qarayman. (62-6.)

3.Werft mich raus. (S.67) - Meni tashqariga uloqtiring. (56-6)

4.In den Gesichtern der Menschen suche ich meine Freunde von damals. (S.74) - Odamlar orasidan sobiq do'stlarimni qidiraman. (62-6.)

5.Humphrey Bogart spricht mit einer arabischen Frau, fragt sie nach der Uhrzeit. Eine russische Hure spricht mit einem Mann, der sich wie Woody Allen bewegt. (S.74) - Bir ayol arab millatiga mansub odamdan soat necha bo'lganligini so'rayapti, bir rus esa boshqa bir millat vakili bilan gaplashib o'tiribdi. (62-6.)

6.Du hast also auch dem Mustafa deinen Schliissel gegeben. (S.68) - Sen Mustafoga ham kalitingni beribsan. (57-6.)

**Bruno Apitz, "Nackt unter Wolfen" - Bruno Apits, "Qashqirlar changalida",
Ya.Egamova tarjimasi**

1.Wer bist du dem, du Kleines? (S.22) - Kimsan axir, bolakay? (17-6.)

2.Hier geht es schließlich nicht nur um deine Haut (S.46) - Bu yerda gap yolg'iz sening joning ustida emas-ku, axir. (39-6.)

3.Hier liegt es, zwischen Koblenz und Bonn. (S.12) - Mana u, Koblents bilan Bonn oralig'i. (9-6.)

4.Die legen uns alle schon vorher um. (S.13) - Yaxshisi bizni o'zlari gumdon qilib qo'ya qolishadi. (9-6.)

5.Wie du heißen? (S.21) - Isming nima? (17-6.)

6.Du bist ein aalglatter Hund (S.46) - Sen uddaburon itsan. (39-6.)

7. Ich sperre den Hund ein und quetsche ihn aus wie eine Zitrone. (S.47) - Men u itni qamab, limonday siqib suvini ichaman. (40-6.)
8. Was suchen Sie da? (S.15) - Anavilar nima qidirishyapti? (11-6.)
9. Es gibt im Lager einen geheimen Sender! (S.42) - Lagerda yashirin radioperedatchik bor. (35-6.)
10. Ich bewundere Ihre Ruhe, Herr Kommandant! (S.42) - Xotirjamligingizga qoyilman janob kommendant! (34-6.)
11. Wenn du Pippig suchst... (S.21) - Pippigni qidirayotgan bo'lsang. (17-6.)
12. Ich habe meine Gründe (S.26) - Mening o'z rejalarim bor. (21-6.)
13. Kommst du mal mit raus? (S.31) - Bir zumga tashqariga chiqmaysanmi? (25-6.)
14. Ist was los? (S.34) - Biror hodisa yuz berdimi? (28-6.)
15. Was machen wir nun mit dem Ding? (S.21) - Manavi odamga nima qilamiz? (17-6.)
16. Gib her, Otto, ich bringe sie selber hin. (S.34) - Menga ber Otto o'zim olib boraman. (28-6.)
17. Kramer singt nicht, aus dem holst du nicht mal einen Gedankenstrich raus. (S.47) -
Kremer miq etmaydi, undan tariqcha ham gap ololmaysan. (40-6.)
18. Sperrst du Kramer ein, warnst du die anderen. (S.47) - Agar Kremerni qamasang, boshqalari hushyor tortib qolishadi. (40-6.)
19. Hast wohl deine ergaunerten Diamanten drin, du Schwein? (S.1 1) - Unda o'g'irlab olgan tillalaring bormi deyman-a, to'ngiz? (8-6.)
20. Pröll macht drüben die Liste fertig. (S.36) - Prel ro'yxat tuzyapti. (30-6.)
21. Was bringst du da angeschleppt? (S.19) - Nimani sudrab kelyapsan? (15-6.)
22. Morgen geht der Transport ab. (S.48) - Ertaga sostav jo'nab ketadi. (40-6.)

23.Du gibst ihm das Kind mit. (S.32) - Bolani o'shanga berib
yuborasan. (27-6.)

24.Keiner kraht nach uns, hier holt uns auch keiner mehr raus. (S.44) - Hech kim
bizning g'amimizni yemaydi, hech kim bizni bu yer dan olib chiqib ketolmaydi
ham. (37-6.)

ANNOTATION

Die Zeitformen in den deutschen und usbekischen Sprachen unterscheiden sich gründlich sowohl nach ihren strukturellen, als auch inhaltlichen Merkmalen. Aus den wissenschaftlichen Untersuchungen wurden folgende Schlußfolgerungen gezogen.

1. Die Wege der Schilderung der absoluten Zeit haben in beiden Sprachen ihre eigenen Eigenschaften. In der deutschen Sprache kommt die Bezeichnung der absoluten Zeit öfter als in der usbekischen Sprache vor. Die absolute Zeit wird im usbekischen unterschiedlich als im Deutschen in der Klassifikation widerspiegelt. Und im Deutschen werden sie mehr inhaltlich zu den Zeitformen zu den Zeitformen vereinigt.
2. Es gibt einige Ähnlichkeiten in den deutschen und usbekischen Sprachen bei dem Ausdruck der absoluten Zeit. Die grammatischen Zeitformen sind in diesen Sprachen gemäß der objektiv – realen Zeit verschieden.
3. Im Deutschen sind Präsens und Präteritum mehr gebrauchte Zeitformen, darum ist es zweckmäßig, durch diese Zeitformen die Beziehungen zwischen absoluter Zeit und Zeitformen zu untersuchen.
4. Um die Beziehungen zwischen der Temporalität und Tempus zu bezeichnen, ist es notwendig, folgende Zeitmerkmale zu benutzen:
 - a) die Aktzeit, die zum Verb des Redeaktes passt.
 - b) die Sprechzeit, in der Satz vom Sprechenden oder Schreibenden gesprochen oder geschrieben wird. Das paßt zur jetzigen Zeit der Sprechenden oder Schreibenden.
5. In dieser wissenschaftlichen Arbeit analysieren wir die Zeitformen des Präsens und Präteritum.

Das Präsens gebraucht man folgende objektive – absolute Zeiten ausdrücken. Das sind: Aktuelles Präsens, das iterative Präsens, das qualitative Präsens, das

generelle Präsens, futurisches Präsens und Präsens historicum, im perativische Präsens.

Präteritum hat keine Nebenbedeutungen, aber es kann in verschiedenen übertragenen Bedeutungen. Einige Wissenschaftler drücken diese Bedeutungen als Nebenbedeutung aus. Aber darin ändert sich die objektive Zeit nicht und durch Präsens wird die Handlung ausgedrückt, die in anderer objektiven Zeit passiert ist, darum kann man sie als übertragene Bedeutungen bezeichnen.

Präteritum gebraucht man oft anstatt Präsens, es drückt gleichzeitig passierte Handlung aus. Aber Ansicht des Sprechenden zeigt nur vorhergedachten Handlung. In diesen Fällen kann man Präteritum immer durch Präsens ersetzen. Darum ist es richtig, es das Präsensische Präteritum anstatt Futurum auch gebrauchen. Solche Fälle kommen selten vor.

Grammatische Zeitformen kann nicht nur den Zeitinhalt, sondern auch die Modalität ausdrücken. Aus vergleichender Untersuchung von Präsens mit objektiver Zeit kann man schlußfolgern, daß Aktuelles Präsens die Hauptbedeutung von Präsens ist, historisches Präsens und Futurisches Präsens die übertragenen Bedeutungen sind, Generelles Präsens und seine Äquivalente seine Nebenbedeutungen sind.

In den historischen Präsens und Futurisches Präsens ist die Handlungszeit, das heißt real – objektive Zeit ins Präsens versetzt.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash,mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.-T.O'zbekiston.2005.
- 2.Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavsizlikka taxdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T.O'zbekiston.1997.
- 3.Karimow I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Toshkent.,Ma'naviyat.2008.
- 4.Abraham, Werner (Hrsg.), (1982). Satzglieder im Deutschen. Vorschläge zur syntaktischen,semantischen und pragmatischen Fundierung. Studien zur deutschen Grammatik 15.Tubingen.
- 5.Admoni, Wladimir (1972, 1986). Der deutsche Sprachbau. Moskau-Leningrad.
- 6.Bauerle, Rainer (1977). Tempus, Temporaladverb und die temporale Frage, veroff. im SFB Linguistik, Universitat Konstanz, 2 Bd.
- 7.Bauerle, Rainer (1979). Temporale Deixis, temporale Frage: zum propositionalen Gehalt deklarativer und deklarativer Satze. Tubingen, Narr.
- 8.Behaghel, Otto (1923). Deutsche Syntax. Eine geschichtliche Darstellung.4 Bande. Heidelberg. Bihandlexikon, Leipzig, 1985.
- 9.Blatz, Friedrich (1879). Neuhochdeutsche Grammatik. Tauberbischofsheim.
- 10.Blatz, Friedrich (1895 /1896). Neuhochdeutsche Grammatik mit Berticksichtigung der historischen Entwicklung der deutschen Sprache. 2 Bd.3. Aufl.Karlsruhe.
- 11.Brinkmann, Hennig (1962). Die deutsche Sprache: Gestalt und Leistung. Dusseldorf.
- 12.Brugmann, Karl (1911). Vergleichende Laut-, Stammbildungs- und Flexionslehre der Wortformen. Bd. 2: Lehre von den Wortformen und ihrem Gebrauch. 2. Teil. 2.Berarbeitung. Straßburg.
- 13.Brugmann, Karl /Delbrück, Berthold (1886-1892). Grundriss der

- vergleichenden Grammatik der indogermanischen Sprachen. Straßburg.
14. Bußman, Hadumod (2002). Lexikon der Sprachwissenschaft. Kroner. Stuttgart.
15. Charitinowa I.J. (1976). Theoretische Grammatik der deutschen Sprache. Syntax. Kiev.
16. Dreyer/Schmitt (1996)
17. DUDEN - Die Grammatik (2006)
18. DUDEN Band 4. (1998). Grammatik der deutschen Gegenwartssprache.
19. Dürscheid, Christa (1991). Modelle der Satzanalyse. Überblick und Vergleich. Kluge Kölner linguistische Arbeiten-Germanistik
20. Gabel Verlag. 20. Ehrich, Veronika (1992). Hier und jetzt: Studien zur lokalen und temporalen Deixis im Deutschen. Linguistische Arbeiten 283. Niemeyer. Tübingen.
21. Ehrich, Veronika / Vater, Heinz (Hrsg.), (1988). Temporalsemantik. Beiträge zur Linguistik der Zeitreferenz. Linguistische Arbeiten 201. Niemeyer, Tübingen.
22. Fleischer, Wolfgang / Barz, Irmhild (1992). Wortbildung der deutschen Gegenwartssprache. Niemeyer. Tübingen.
23. Fleischer, Wolfgang / Helbig, Gerhard / Lerchner, Gotthard (Hrsg.), (2001). Kleine Enzyklopedie. Deutsche Sprache. Peter Lang, Frankfurt am Main.
24. Gallmann, Peter / Sitta, Horst (1996). Deutsche Grammatik. 3. Aufl. Zürich.
25. Glinz, Hans (1970; 1971). Deutsche Grammatik I / II. Frankfurt am Main.
26. Grimm, Jakob (1837). Deutsche Grammatik, Band 3, 4, Göttingen. Helbig,
27. Gerhand / Wolfgang Schenkel. (1978). Wörterbuch zur Valenz und Distribution deutscher Verben. Bibliographisches Institut. Leipzig.
28. Helbig, Gerhard (1968). Zum Problem der Wortarten in einer deutschen Grammatik für Ausländer. In: DaF 5.

Foydalanilgan lug'atlar:

- 25.Duden.Grammatik der deutschen Gegenwartsprache.Uchpedgiz.1962.
- 27.Duden.Deutsches.Uniwersalwörterbuch.Mannheim-Leipzig Wien -Zürich.1989.
- 28.Duden.Das Bedeutungswörterbuch.Bd.10.Mannheim-Zürich.1963.
- 29.Duden.Das Herkunftswörterbuch.Bd.7.Mannheim-Wien-Zürich.1970.
- 30.Fremdwörterbuch.Leipzig.1963.
- 31.Hojiev A.P. Tilshunoslik terminlarning izohli lug'ati.T.O'qituvchi.2002.
- 25.Langenscheidts Großwörterbuch.Deutsch als Fremdsprache.Berlin-München-Wien-Zürich-New York.2002.
- 32.Ruscha-internasional so'zlar lug'ati.Toshkent.1978.
- 33.Synonymwörterbuch.Leipzig.1973.

Foydalanilgan internet saytlalari ro'yxati:

- 34.<http://www.altinmiras.com>.Filologiya.
- 35.<http://www.du.uz>.Morfologiya.
- 36.<http://www.lingvoda.ru>
- 37.<http://www.translate.ru>
- 38.<http://www./uzber.fire-speaker.org>
- 39.<http://www.o'zmu.uz>.Filologiya.
- 40.<http://ziyonet.uz>.Filologiya.
- 41.<http://www.tdpu.uz>.Filologiya.